



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda На посту

2024-yil  
27-iyun  
payshanba

№ 26 (4668)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan /

Web-site: www.postda.uz /

E-mail: info@postda.uz

## SHIJOAT VA HAMJIHATLIK TANTANASI

### ВАТАН ПОСБОННИНГ УМР КИТОБИ

Доим баланд бўлсин юрт кўрғонлари,  
Нурга тўлсин бағри, уй-айвонлари.  
Сизга, эй юртимнинг мард ўғлонлари,  
Шараф-шон гуллари даста-дастадир.

Сирожиддин САЙИД,  
Ўзбекистон халқ шоири.

Мамлакатимиз давлат мустақиллигига, истиқлол инъом этган бугунги тинч, осойишта ва фаровон кунларга ўз-ўзидан осонликча эришмаган. Халқимизнинг хоҳиш-истаги ва элимизнинг асл ватанпарвар фарзандлари саъй-ҳаракатлари билан ота-боболаримизнинг асрий орзулари амалгашиб, мустабид занжирлари парчаланган – Ўзбекистон тенглар ичра тенг, хур ва озод давлатга айланган. Айниқса, истиқлолнинг дастлабки йилларида энг улуғ ва энг азиз неъмат – мустақиллигимизни мустаҳкамлаш ва асраб-авайлаш учун Она Ватанимизнинг қанчадан-қанча фидойи фарзандлари юксак жасорат ва матонат кўрсатганлар. Мустақил Ўзбекистон Республикасининг биринчи Ички ишлар вазири, генерал-полковник Зокиржон Алматовнинг «Унутилмас хотираларим» автобиографик асарини мутолаа қилган ҳар бир инсон бунга яна бир бор амин бўлади.

Китобхон кўз олдида мустақилликка эришиш арафаси ҳамда истиқлолнинг дастлабки йилларида содир бўлган суронли воқеалар даврида ички ишлар органлари ва бошқа ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари кўрсатган қаҳрамонликлар гавдаланар экан, у эркинликнинг олий неъмат эканини теран англаб, бугунги тинч ва фаровон кунларга чин қалбдан шукроналик келтиради.

Китоб сифат жиҳатидан халқаро андозаларга мувофиқ тарзда ниҳоятда юксак дид билан нашр этилган. Унинг муқоваси ўқувчи эътиборини бир қарашда ўзига жалб қилади. Қоғоз сифати ва саҳифаларда ишлатилган безаклар эса китобхон учун мутолаа жараёнини осонлаштиради. Китобни мазмунан ва шаклан янада бойитиш мақсадида саҳифалар орасида рангли суратлар ҳам берилган. Эътиборлиси, ҳар бир сурат остида қисқа изоҳ ёзилган ва бу уларнинг қийматини янада оширган.

«Унутилмас хотираларим» китоби тузилишига кўра тарихий очерклар ва воқеалар тафсилотидан иборат бўлиб, унда генерал-полковник Зокиржон Алматовнинг ибратли умр йўли ва ҳаётини хулосалари ёритилган.

Зокиржон ака 1949 йил 10 октябрда Тошкент шаҳрининг «Юзработ» маҳалласида таваллуд топган. Ота-онаси деҳқончилик билан шуғулланиб, уни болалигиданоқ ҳалол меҳнатга ўргатишган. Тақдирнинг аччиқ синовлари Зокиржон аканинг елкасига жуда эрта тушиб, саккиз ёшида отасидан айрилган. Отаси юрак хуружидан вафот этган.

(Давоми 10-бетда).



Qashqadaryo viloyatida «Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!» shiori ostida Ichki ishlar organlari yosh xodimlari va harbiy xizmatchilarining IV Respublika yoshlar forumi bo'lib o'tdi.

Aytish joizki, vazirlik miqyosida to'rtinchi marotaba tashkil qilingan bu galgi yoshlar forumi keng ko'lam kasb etdi.



▶ BITIRUV

# SHARAFLI XIZMAT SARI

**IIV Akademiyasi bitiruvchilari sharaflı xizmatga yo'l olish oldidan poytaxtimizdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida saf tortishdi. Yosh leytenantlarga diplom topshirish marosimiga vazirlik rahbariyati, qator davlat organlaridan mehmonlar, keng jamoatchilik vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.**



Tadbir avvalida Akademiya boshlig'i, polkovnik Rustam Xatamov yig'ilganlarni muhim sana bilan qizg'in qutladi. Shundan so'ng bitiruvchilarga tantanali ravishda diplomlar topshirildi.

Bitiruv tadbirida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov inson qadri ulug'langan yurtimizda kechayotgan ulkan o'zgarishlar, ichki ishlar organlarini xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida olib borilayotgan islohotlarga to'xtaldi. Keyingi yillarda tizim uchun yetuk kadrlar tayyorlash jarayonlari ham tubdan isloh qilingani, ilg'or yondashuvlar yangi avlod ichki ishlar xodimlarini tayyorlashda muhim omil bo'layotganini ta'kidladi.

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burxonov hamda Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik Akmal Saidov bitiruvchilarni qutlarkan, yoshlarning buguni va kelajak taqdiri yo'lida yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar, fidoyi va tashabbuskor yoshlar qo'lga kiritayotgan yutuqlar e'tirof etildi. Bitiruvchilar chinakam xalqparvar xodim sifatida ona Vatanimiz va xalqimizga yuksak sadoqat bilan xizmat qilishi zarurligi ta'kidlandi.

– O'g'lim Shuhratjonning mazkur o'quv dargohini muvaffaqiyatli



tamomlagani yoshlarga berilayotgan yuksak e'tiborning samarasidir. Yurt osoyishtaligini asrash, xalqimiz tinchligini ta'minlash, inson manfaatlarini himoya qilish ichki ishlar xodimlarining sharaflı burchi sanaladi. Adolat, halollik, fidoyilik bitiruvchilarimizning hayot mezoni bo'lsin, ana shunday jasur

o'g'il-qizlarimiz bilan butun xalqimiz faxrlanib yursin, – dedi otanalar nomidan so'zga chiqqan Nargiz Chinaliyeva.

Bayramona o'tgan tadbir ona yurtimizni madh etuvchi qo'shiqlar bilan ko'tarinki ruhda yakunlandi.

**O'z muxbirimiz.**





IJTIMOY HIMOYA

Namangan viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati tomonidan shaxsiy tarkib hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ijarada yashayotgan xodimlarning turmush sharoiti bilan tanishish, mavjud muammolarni o'rganish hamda ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida manzilli ishlar tashkil etilmoqda.



Namangan viloyati

So'nggi ikki yilda uy-joyga muhtoj xodimlarning ijtimoiy ahvoli o'rganilib, elektron platformaga kiritilgan 50 nafar xodimga uy sotib olishida boshlang'ich badal to'lab berildi. Yana 135 nafar xodim turarjoy sotib olish uchun onlayn navbatga qo'yildi.

– Namangan shahrida joylashgan «Elobod city» katta shaharchasidan ikki xonali xonadon uchun boshlang'ich badal pullari to'lab berildi. Bu biz uchun rag'bat va imkoniyat bo'ldi. Yangi uyga ko'chib o'tgan kunimizdagi bolalarning quvonchini aytmaymizmi? – deydi Namangan tumani IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, mayor Dilbar Turg'unova.

– Har oy 15 nafardan xodimning ijtimoiy ahvoli o'rganilmoqda, – deydi viloyat IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi ijtimoiy ta'minot guruhi katta inspektori, katta leytenant Ilhomjon Turg'unboyev. – Joriy yilning o'tgan besh oyi davomida 95 nafar xodimga ijara puli to'lab berildi. Bunday sa'y-harakatlar xizmat faoliyati natijadorligini oshirishda muhim omil bo'lyapti.

O'z muxbirimiz.

AYOL – OILA – JAMIYAT

## EZGU MAQSADNI KO'ZLAB

**Farg'ona viloyatida xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.**

Asosiy maqsad – ayollar o'rtasida jinoyatchilikni jilovlash borasida Farg'ona tajribasini yaratish. Shu bois dastlab «xavfsiz oila» tamoyili asosida viloyatdagi 1 mln 96 ming 443 ta oila to'liq xatlovdan o'tkazildi. Oilalar shartli ravishda «qizil», «sariq» va «yashil» toifalarga ajratilib, «oilabay» ishlashga kirishildi.

O'rganishlar jarayonida ajrim yoqasiga kelib qolgan 283 ta oila yarashtirildi. 178 ta oilaning aliment bilan bog'liq, 50 ta oilaning mol-mulk bilan bog'liq muammolari hal etildi. 63 ta nizoli holatni bartaraf etish uchun himoya orderi berilib, oilalar nazoratga olindi. Har oyning 26 sanasi «Ajrimga qarshi kurashish kuni», haftaning har juma kuni «Ahil oila kuni» etib belgilandi.

Joriy yilning 5 oyi davomida, hamkorlikda amalga oshirilgan tadbirlar natijasida sog'lom turmush tarziga o'tganligi uchun 1005 nafar profilaktik hisobda turgan xotin-qiz profilaktik hisobdan chiqarildi. Hozirgi kunda profilaktik hisobda turgan 5 725 nafar xo-



tin-qiz bilan yakka tartibdagi hamda ijtimoiy profilaktik ishlar davom ettirilmoqda.

Har bir shahar-tumanda xotin-qizlar muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha alohida ishchi guruhlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Joylarda «Ahil oilalar – yurt ko'rki», «Firibgarlik jinoyatidan ogoh bo'ling!», «Oila-turmush munosabatlari», «Oila-

viy zo'ravonlik», «Erta turmush va erta nikohning oldini olish – dolzarb vazifa», «Ajrimlarga yo'l qo'ymaymiz!» kabi mavzularda ko'plab huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. «Mehrjon» bolalar va ayollar huquqlarini himoya qilish markazi bilan hamkorlikda hududlarda o'tkazilgan «Zo'ravonliksiz hayot sari» mavzusida turkum seminarlar ham xotin-qizlarning huquqiy

savodxonligini yuksaltirishda muhim omil bo'ldi.

Ezgu maqsadni ko'zlab amalga oshirilgan tadbirlar ijobiy samarasini berib, joriy yilning o'tgan davrida viloyatda oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlar salmog'i 73 foizga kamayishiga erishildi.

**Dilshoda O'RINOVA,**  
podpolkovnik.

Farg'ona viloyati.



## Третий сектор

# НИКТО НЕ ОСТАЕТСЯ БЕЗ ВНИМАНИЯ

Семейная жизнь Гулчехры не сложилась. Но она не отчаивалась. Все силы отдала воспитанию двух дочек и сына.



При поддержке отца выдала девушек замуж. Затем с сыном начала строить собственный дом. Уверенная, что вернет долг, женщина взяла займы недостающие 18 миллионов сумов.

Вскоре дом был готов. Постепенно она рассчитывалась с кредитором. Но тут вначале слегла сама, а позже заболел и сын. Женщина больше переживала за оставшуюся сумму, а время шло. Словом, Гулчехра из махалли Узун Зафарабадского района два года маялась.

В один из выездных приемов руководителей правоохранительных органов области женщина озвучила свои проблемы.

Были изучены бытовые условия заявительницы. В результате ей было оказано содействие в решении волнующих вопросов.

Более того, Гулчехре оказана помощь в получении ID-карты, были приняты меры для лечения женщины и трудоустройства ее сына.

За минувший период года рабочая группа 3-го сектора помогла с обеспечением занятости 1336 женщин. Материальная помощь выделена 878 нуждающимся и 435 лицам, воспитывающим детей с инвалидностью.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**  
соб. корр.

Джизакская область.

## Цифровизация

# «ЗЕЛЕННЫЕ» МАХАЛЛИ ДРЕВНЕГО ГОРОДА

Маргилан славится своими мастерами. Традиции национального прикладного искусства здесь передаются из поколения в поколение. В городе много исторических достопримечательностей, музеев, центров ремесленничества. Поэтому год от года растет поток местных и зарубежных туристов.

Широкое внедрение цифровых технологий, использование передового опыта позволяют эффективно предупреждать преступность и нарушения закона. За минувший период текущего года удалось существенно снизить показатели общей преступности. Достигнуты успехи в борьбе с нанесением телесных повреждений, кражами. Улучшена статистика правонарушений в общественных местах.

– В Маргилане во всех 56 махаллях установлены камеры видеонаблюдения, позволяющие вести мониторинг общественной безопасности. Они интегрированы в служебные компьютеры

инспекторов профилактики и ситуационный центр Маргиланского ГОВД, – говорит заместитель начальника городского отдела внутренних дел, начальник СОБ майор Элбек Турдиев. – Кроме того, вдоль проспектов, на перекрестках, на рынках установлены камеры, позволяющие идентифицировать личности граждан.

Махалля Икбол одна из оживленных и благоустроенных. Здесь проживают свыше 2,4 тысячи человек.

– Камеры наружного наблюдения – наши «глаза», – делится инспектор профилактики старший лейтенант Улугбек Очилов. – В нынешнем году в махалле не до-



пущено совершения ни одного преступления. Чтобы закрепить статус «зеленой» махалли, совместно с председателем МСГ Дилнозахон Саидовой, женской активисткой Кумрихон Мамажановой, молодежным лидером Зиёйиддином Худойбердиевым и другими проводим профилактическую работу в разрезе каждой семьи.

Махалля Шолдирама, где несут службу старший инспектор профилактики капитан Ахроржон Солиев, также относится к «зеленым». Обеспечивать спокойствие и порядок здесь также помогают камеры наблюдения.

**Абдувосит СИДИКОВ,**  
соб. корр.

Ферганская область.





## O'zbekiston — Rossiya:

# HAMKORLIKNING YANGI ISTIQBOLLARI

**Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Toshkent shahrida mamlakatimiz Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonovning Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vaziri, politsiya generali Vladimir Kolokolsev bilan rasmiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbirda Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Oleg Malginov ham qatnashdi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin tomonidan joriy yilning 27-may kuni imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hamkorligining ustuvor yo'nalishlarida hamkorlikni

vositalarining noqonuniy aylanishi hamda boshqa transmilliy uyushgan jinoyatlarga qarshi kurashish, qidiruvdagi shaxslarni ushlashda soha xizmatlarining hamkorligiga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, tomonlar ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyor-



kengaytirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasining ijrosini ta'minlash maqsadida Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vaziri boshchiligidagi soha mas'ullaridan iborat delegatsiyaning O'zbekiston Respublikasiga tashrifi amalga oshirildi.

Ikki davlat ichki ishlar organlari rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda taraflar uchun muhim bo'lgan masalalar keng muhokama qilindi. Jumladan, Rossiya hududida bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi Rossiya fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash, ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va noqonuniy migratsiya holatlariga barham berish, jinoyatchilik, shu jumladan, kibernetik jinoyatlar, firibgarlik, giyohvandlik

lash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot yo'nalishida aloqalarni mustahkamlash zarurligini ta'kidlab o'tdilar.

Tadbir so'ngida rahbarlar kun tartibidagi masalalar bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlar hamda istiqbolli vazifalar belgilangan bayonnomani imzoladilar.

Tadbir doirasida Po'lat Bobojonov va Vladimir Kolokolsev Toshkent shahridagi «G'alaba bog'i» yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdilar. Ko'p millatli xalqlarimiz umumiy tarixi va uning yorqin sahifalari, jumladan, Ikkinchi jahon urushidagi G'alabani alohida hurmat-e'tibor bilan yod etdilar.

Bu yerga tashrif davomida ikki davlat Ichki ishlar vazirlari halok



bo'lgan o'zbek askarlarining xotirasini yodga oldilar va urush tufayli besh nafar o'g'ildan ayrilgan Zulfiya aya Zokirova xotirasiga o'rnatilgan «Matonat madhiyasi» yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydilar. O'zbekistonning urushdagi ishtiroki tarixiga bag'ishlangan «Shon-sharaf» muzeyining boy ekspozitsiyasi bilan tanishdilar.

dasturlar, yo'l harakati xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat tartibini saqlash xizmatlarining yagona axborot tizimlari jamlangan, olti mingdan ziyod raqamli kuzatuv kameralari integratsiya qilingan. Shuningdek, markazda videoaloqa orqali profilaktika inspektorlari, yo'l-patrol, patrol-post va probatsiya xizmatlari xodimlari uchun



Shuningdek, tashrif jarayonida, rossiyalik hamkorlar Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markazi faoliyati bilan tanishdilar. Markaz jamoat xavfsizligi jarayonlarini qamrab olgan yagona axborot makoni hisoblanib, hududlardagi vaziyat va xodimlarning ish-harakati raqamli texnologiyalar orqali tahlil qilib boriladi. Hozirda, 10 mingdan ortiq profilaktika inspektorlarining faoliyatini 6 ta yo'nalish bo'yicha nazorat qilish va baholash amalga oshirilmoqda.

Markazda «E-Jamoat xavfsizligi», «E-Ijtimoiy vaziyat» kabi

masofaviy o'quv kurslarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Xorijiy mehmonlarga mamlakatimiz ichki ishlar organlari tomonidan sohada qo'llanilayotgan transport vositalari, maxsus texnika hamda zamonaviy vosita va aslahalar namoyish etildi.

Mazkur tadbir ishchanlik va konstruktiv ruhda, do'stlik, o'zaro ishonch muhitida o'tgani sohalar o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

IIV Axborot xizmati.



30 июня — День молодежи

## РАЗВИТИЕ СТРАНЫ В ИХ РУКАХ

30 июня в Узбекистане отмечается День молодежи. Позитивной настрой и целеустремленность, желание интеллектуального и профессионального роста присутствуют у юношей и девушек страны. Всесторонняя поддержка государством молодежи обеспечивает динамичное развитие республики, общества и нации в целом.

Одним из ярких представителей современной молодежи является лейтенант Хумоюн Анваржанов. Он успешно окончил в 2019 году Андижанский академический лицей МВД, в 2022 году Академию. Молодой офицер начал службу дознавателем следственной группы при Улугнорском РОВД. Его наставником стал старший следователь майор Аброр Рузиев. С прошлого года он работает следователем следственного отдела при УКД ОВД города Андижана.

– С благодарностью вспоминаю педагогов Андижанского академического лицея – преподавателя правоведения



подполковника в отставке Зухриддина Имомова, учительницу русского языка и литературы Барнохон Камалову, учителя истории Фархода Ахмедова, профессорско-преподавательский состав Академии, которые щедро делились знаниями, – отметил лейтенант Х. Анваржанов. – Спасибо им!

На примере героя публикации есть уверенность в том, что сегодняшняя молодежь станет тем поколением, которое выведет Узбекистан на новый уровень социально-экономического развития.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.

*На снимке: лейтенант Хумоюн Анваржанов с учащимися Андижанского академического лицея МВД.*

*Андижанская область.*

### Кибербезопасность



#### Джизакская область

**В последние годы наблюдается рост количества преступлений, связанных с интернетом и компьютерными технологиями.**

В их числе фиктивный трейдинг, открытие банковского кредита на имя других лиц.

Подобная информация озвучивается в ходе комплексных профилактических мероприятий, проводимых в эти дни в Джизакской области в рамках месячника «Cyber month

Jizzakh». Месячник организован по инициативе Центра кибербезопасности Оперативно-розыскного департамента МВД. В беседах с населением в махаллях, в трудовых коллективах и организациях разъясняются наиболее распространенные методы, используемые киберпреступниками. Этой же тематике посвящены челленджи с участием юношей и девушек.

В рамках месячника проходят смотры-конкурсы под девизами «Безопасное пользование интернетом», «Берегитесь мошенников!» «Вместе противостояем киберпреступности». Организуются соревнования по киберспорту и конкурсы рисунков под девизом «Мы против преступности!», учебные курсы по противодействию киберугрозам.



Соб. корр.





## OILAVIY MEHMONXONA SOHIBI

**Iste‘fodagi kapitan Bahodir Halimov o‘ttiz yildan ortiq ichki ishlar organlari tizimida samarali xizmat qilgan faxriylarimizdan.**

– Onam Oyshaoy Yunusova Samarqand shahrida pasport stolda ishlagan, – deydi qahramonimiz sohaga kirib kelishini xotirlarkan. – Sohaga qiziqish onamning ishxonasiga tez-tez borib turish ortidan uyg‘ongan. Harbiy xizmatni o‘tab qaytgach, niyatimni onamga oshkor qilganimda, ular bajonidil meni qo‘llab-quvvatlagan. 1977-yilda Samarqand shahar IIBda ilk faoliyatimni boshlaganman. Keyinchalik IIV Toshkent o‘rta maxsus maktabining sirtqi bo‘limini tamomlab, 1983-yilda Samarqandning eski shahar hududida profilaktika inspektori sifatida xizmatni davom ettirdim.

Ustozlari – iste‘fodagi polkovnik Asqar Yo‘ldoshev, podpolkovnik Safar Egamberdiyev, mayorlar Raim Obidov, Abdusamat Esonboyevdan o‘rganganlariga yillar davomidagi amal qilgan qahramonimiz 1999-yilda yorug‘ yuz bilan pensiyaga chiqdi.

– Yurtimizda o‘sha kezlarda tadbirkorlik va kichik biznesga keng yo‘l ochilgan edi, – deydi Bahodir aka. – «Biznes» so‘zi ba‘zilarda g‘ayrat, boshqalarda hadik uyg‘otardi. Ammo men bafurja o‘tirib, oilaviy mehmonxona faoliyatini yo‘lga qo‘yishning xomcho‘tini qilib ko‘rdim. Ishning ko‘zini biladigan insonga bir ro‘zg‘orning kamini to‘ldirishga yetadigan daromad olsa bo‘ladi. Faqat reja bilan harakat qilish kerak. Dastlab o‘zimning shaxsiy mablag‘im hisobidan uch qavatli imorat qurish ishlarini boshladim. Keyin bankdan yuz millon kredit oldik. O‘g‘lim Jamshid yonimga kirdi. U bilan mehmonxona dizayni, zamonaviy

qulayliklar borasidagi tajribalarni o‘rganib chiqdik. Chunki bugun qaysi sohaga qo‘l ursangiz, avvalo, huquqiy savodxon bo‘lib talab va taklifni o‘rganmasangiz, raqobat maydonida tura olmaysiz. Ayniqsa, biz tanlagan yo‘nalishda mehmonlarning didi, xohishlarini sinchiklab o‘rganib chiqish muhim. Bosqichma-bosqich ishlarni yakunlab, 2018-yilda «Margiana» deb nomlangan oilaviy mehmonxonamiz faoliyatini boshladi.

– Hozirda oilaviy mehmonxonamizda 9 ta xona bo‘lib, 22 kishiga xizmat

muddao. Ayniqsa, bahor va kuz faslida xorijlik sayyohlar oqimi ko‘payganda. Otam mehmonxonaning iqtisodiy, men tashkiliy, ayolim Zebo xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq vazifalarni o‘z zimmamizga olganmiz. Onam ham nabiralalar bilan yaqin ko‘makchiga aylanishadi.

Ishning baroridan kelishi-yu daromadning barakasi oilaviy ahilinoqlik, totuvlikda. Bahodir Halimov el-yurt tinchligi, osoyishtaligi yo‘lida mehnat qilish bilan bir qatorda, turmush o‘rtog‘i Marhabo aya bilan oila oshyonida farzandlari Jahongir, Jasurbek, Jamshidjon va Azizaxonlarga to‘g‘ri ta‘lim-tar-



Suratda: Bahodir Halimov o‘g‘illari bilan.

ko‘rsata olamiz, – deya qahramonimizning o‘g‘li Jamshid suhbatimizga qo‘shildi. – Qulay tomoni mehmonxonamiz shundoq yashash xonadonimizning yonida. Bu oila a‘zolarimizning barchasi birdek mehnat qilishida ayni

biya bera olgan. Buning samarasi o‘laroq, farzandlarining biri pedagog, biri huquqshunos, qolaversa, oilaviy biznes rivoji yo‘lida bir yoqadan bosh chiqarib, mehnat qilib kelishmoqda. Sakkiz nabira ham katta avlod ortidan

dadil odimlab, ularning izidan borishmoqda.

Bahodir aka tabiatidagi samimiyliги, to‘g‘riso‘zligi tufayli atrofdagilar bilan tezda til topisha oladi. Undagi bu fazilat ichki ishlar organlaridagi xizmat yillarida ham ko‘p asqatgani aniq. Eng muhimi, u o‘z kuch va imkoniyatlarini biladi va baholay oladi. Shu bois ham hukumatimizning tadbirkorlik borasidagi siyosatini chuqur anglagan holda intildi, o‘rgandi, hozirda esa o‘ziga havas qilganlarni ergashtira olyapti ham. Ibratli oilasida farzadlar-u nabiralalar qurshovida baxtli, saodatli umr kechirmoqda.

**Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,**  
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

### KASB FIDOYILARI

## O‘ZIMIZNING QAHRAMONLAR

**Kun botayotgan paytda viloyat IIB JXX JTSB patrul-post xizmati batalyonida kechki navbatchilikka chiqadigan xodimlar saf tortdi. Tegishli yo‘riqnoma berilgach, hamma belgilangan xizmat hududi tomon otlandi. Ular orasida batalyonning ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazishda xavfsizlikni ta‘minlash otryadi muhandisi, serjant Azamat Jumaqulov va safdor Jasur Bozorov ham bor edi.**



Ikkala xodim Termiz shahridagi «Kattabog‘» va «Chegarachi» mahallalari hududi bo‘ylab xizmat olib borish uchun ishga kirishishdi. Oradan vaqt o‘tib, ko‘chalardagi gavjumlik o‘rnini sokinlik egalladi. Odamlar uylariga kirib ketishdi. Shu payt 9 qavatli uyning pastki qismida joylashgan do‘konlardan birida yong‘in chiqayotganiga ko‘zi tushgan Azamat Jumaqulov sherigini turtdi. Xodimlar tezlik bilan yong‘in sodir bo‘layotgan tomonga yugurishdi. Darhol avval navbatchilik qismiga, so‘ng yong‘in xavfsizligi xizmatiga xabar qilishdi. Ular kelgunlariga qadar do‘kon atrofidagi avtomashinalarning signalizatsiyasini ishlatishga, ko‘p qavatli uydagi fuqarolarni uyg‘otishga harakat qilishdi.

Yong‘in borgan sari kattalasha boshladi. Ko‘p qavatli uyning podyezd qismiga kirgan Azamat Jumaqulov burqsigan tutundan nafas olishi qiyinlasha boshladi. Shunga qaramay, xonadon eshiklarini bor kuchi bilan taqillatib, odamlarni uyg‘otishga urinardi.

Shu orada patrul-post xizmati batalyoni xodimlari, o‘t o‘chiruvchilar ham yetib keldi. Yong‘inni o‘chirgunga qadar barcha xodimlar maxsus gaz qaytaruvchi niqoblarni kiyib, ko‘p qavatli uyning tepa qavatlariga ko‘tarilishdi va bolalarni yelkalarida ko‘tarib, qo‘lma-qo‘l balkon orqali uzatib, tashqariga evakuatsiya qilishdi. Butun boshli ko‘p qavatli uydagi fuqarolarning barchasi xavfsiz joyga ko‘chirildi. Hech kimga shikast yetmadi. – 12 yillik xizmatim

davomida turli holatlarga guvoh bo‘ldim, – deydi serjant Azamat Jumaqulov. – Yong‘in paytida ham oxirigacha fuqarolarni qutqarishga urindik. Hatto maxsus niqobda nafas olish qiyinlashdi. Lekin bu ko‘zimga ko‘rinmadi. Mening ham 2 nafar farzandim bor. Bolalarni ko‘rganda ular ko‘z oldimga keldi. Shukrki, vaqtda talofatning oldini olishga ulgurdik.

Ha, serjant Azamat Jumaqulov va safdor Jasur Bozorovlar o‘z kasbining chinakam fidoyilaridir. Ularning hushyorligi qancha insonlarning, yosh go‘daklarning hayotini saqlab qolishga sabab bo‘ldi. Oramizda shunday qahramonlar borligidan faxrlanamiz.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o‘z muxbirimiz.  
Surxondaryo viloyati.



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!

# SHIJOAT VA HAMJIHATLIK TANTANASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Tantanalni tadbirda ishtirok etib, so'zga chiqqan Ichki ishlar vazirining o'rinbosari, general-mayor Davron Nazarmuhamedov davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodga har qachongidan ham katta e'tibor qaratilayotganligini ta'kidladi.



– Hozirgi kunda ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining deyarli 30 foizini yosh xodimlar tashkil etadi, – dedi vazir o'rinbosari o'z ma'ruzasida. – O'tkazilayotgan mazkur forum sohada xizmat qilayotgan yoshlarning kasbiy bilim va malakasini oshirishda, ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi shubhasiz.

Tadbirning dastlabki kunini xotin-qizlar o'rtasidagi sohil voleyboli bellashuvlari boshlab bergan bo'lsa, «Paramedik» musobaqalar va «Jangovar marsh» sinovlari bilan qizg'in davom etdi. Keyingi kuni esa xotin-qizlar o'rtasida «Harbiy estafeta» bahslari bo'lib o'tdi. Shahrisabz shahridagi «Hisor» o'yingohi bazasidagi suv

havasida ishtirokchi yigitlar o'rtasida uyushtirilgan suzish musobaqalari ham g'oyat murosasiz kurashlar ostida kechdi.

Xuddi shuningdek, «Zakovat» intellektual o'yini ishtirokchilarning bilimini, intellektual salohiyatini sinovdan o'tkazdi. Yosh xodimlar va harbiy xizmatchilarning xavfsizlik sohasidagi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash va bu boradagi bilim va malakasini oshirishga qaratilgan ko'rgazmali seminar-trening, malakali psixolog, psixiatr va sotsiologlar tomonidan axloqiy-motivatsion tadbirlar, «Ustoz-shogird» uchrashuvlari, xayriya va homiylik aksiyalarining tashkil etilgani ham tahsinga sazovor bo'ldi. Va al-

batta, forum davomida ko'hna Shahrisabz shahri, jumladan, Oqsaroy majmuasiga qilingan sayohatlar ishtirokchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Yoshlar forumining so'nggi kunida Shahrisabz shahridagi Madaniyat saroyida g'oliblarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Umumiy natijalarga ko'ra, mezbon – **Qashqadaryo viloyati IIB jamoasi** g'oliblikni qo'lga kiritib, forum kubogi, medallar va pul mukofoti bilan taqdirlandi. Keyingi o'rinlarni egallagan **Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV** va

**Namangan viloyati IIB** va-killariga ham diplom, medal va pul mukofotlari tantanalni ravishda topshirildi.

Shuningdek, 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan hamda o'zining bilim va iqtidori, tashabbuskorligi, halol va samarali xizmati orqali yurtimiz tinchligi va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgani, qolaversa, ichki ishlar organlarida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi faol ishtiroki uchun Farg'ona viloyati IIB katta inspektori, katta leytenant **Jasurbek Hamdamov** va Surxondaryo viloyati IIB katta inspektori, leytenant **Rasul Oripov** «Yoshlar fidoiyi» ko'krak nishoni, Qashqadaryo viloyati Nishon tumani IIB profilaktika inspektori, leytenant **Firdavsiy Rasulov** faxriy yorliq, Shahrisabz tumani IIB katta inspektori, katta leytenant **Shoxruh Mannonov** esdalik qo'l soati, Kasbi tumani IIB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant **Mashhura Mirzayeva** kitoblar to'plami bilan mukofotlandi.

Bir so'z bilan aytganda, Ichki ishlar organlari yosh xodimlari va harbiy xizmatchilarning IV Respublika yoshlar forumi yoshlik, shijoat va hamjihatlik tantanasiga aylandi.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.





# MUOMALA MADANIYATI – XODIMNING MA'NAVIY QIYOFASI

**Sa'diy Sheroziy muomala mavzusida fikr yuritarkan, «Olam eli yor bo'lishini istasa ta'b, Muomala qil barchaning fe'liga qarab», deydi. Dono xalqimiz bositida ham shunga o'xshash naqlar bor: «Nima topsang fe'lingdan topasan, birovdan qidirsang fe'lidan topasan». Demak, fe'limiz, xarakterimiz muomalamizning qanday bo'lishini ta'minlaydi va boshqaradi.**

Muomaladan inson, avvalo, qurol sifatida foydalanadi. Agar kishi xushmuomala bo'lsa, u doimo qurollangan kishidek shasht bilan shaxdam yuradi. Xushmuomalalik to'nini kiyib, xasisni pul bilan, takabburni sipolik bilan, ahmoqni tantilik bilan, dononi esa haqiqat bilan yengib ketaveradi.

**Muomala – qalqon.** Undan qalqon sifatida foydalanish uchun oldin aqlga ishora qilish kerak bo'ladi. Adovatni adovat bilan bartaraf qilib bo'lmaydi, uni faqat adovatsizlik bilan bartaraf etish mumkin.

Nodonlik alomati besabab janjalkashlik: aqlli, dono odam nodon bilan adi-badi aytishmaydi. Bosiqlik, vazminlik va xushmuomalalik bilan vaziyatdan chiqish muomaladan qalqon sifatida foydalanish bo'ladi.

**Muomala – kalit.** Oqil-u donolik bilan qilingan muomala yopiq eshiklarni ochadi. Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi, deydi xalqimiz.

**Muomala – odob.** Agar inson odob bilan muomala qilsa, boshqalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Yoqimli so'zlang, lekin xushomadgo'ylik qilmang, qahramon bo'ling, lekin maqtanmang, saxiy va hotam bo'ling, lekin nomunosib benomuslarga emas, dadil bo'ling, ammo qo'pol va surbet bo'lmang.

**Muomala – do'st.** Yaxshi muomalada bo'lgan kishining albatta do'stlari ko'p bo'ladi.

**Muomala – yaxshilik.** Ichki ishlar xodimida birovlarga yaxshilik qilish imkoniyati ko'p. Albatta bundan noqonuniy ishlar mustasno bo'lishi kerak. Qancha yaxshilik qilsam, birontasi buni bilmayapti-ya, deb nolimang. Chunki buyam savob. Xayr-ehsonga teng savob yo'q. Osmonda qushning, suvda baliqning izi ko'rinmaydi. Yaxshilik qiling suvga tashlang, bilsa baliq, bilmasa Xoliq biladi, degani shundan.

**Muomala – til.** Boyning ham, hukmdorning ham, bolami, keksami, zohid-u donomi, ayol kishimi yo tentakmi hammasining «tili»ni topa bilgan odam chinakam oqildir.

**Muomala – so'z.** Inson ruhini hech bir narsa so'zchalik ko'tara olmaydi. Bu dunyoda odam ikkita fazilati bilan go'zal ko'rinadi: qo'pol so'zlamasa va arzimagan narsaga ortiqcha baho bermasa. Bilingki, odamzodning nomayi a'molini so'zi belgilaydi, uning asosi so'zdir, so'zdan yaralgan. So'zda aldagan odam hamma sohada va har qanday yo'l bilan aldaydi.

**Muomala – tadbir.** Xushmuomala kishining ishi tez bitadi. Muomala durust bo'lmasa, bitayotgan ish ham teskari ketadi. Ilojsiz



ishlarning iloji yo'q, imkoni bor narsaning iloji bor. Arava suvda suzmaydi, kema quruqlikda yurmaydi.

**Muomala – taqdir.** Biling, ichki ishlar organlari xizmatida xavf bor, xatar bor. Ammo siz bundan sira cho'chimang. Agar mingta o'q tegsa ham, ajali yetmagan odam o'lmaydi. Vaqti soati yetgan bo'lsa, cho'pga qoqilib ham jon berish mumkin. Yaxshi muomalali kishilarning ishga kirayotgan paytda suhbat jarayonida rahbariyatga ma'qul kelishi, yomon muomalada bo'lganlarning ostonadan qaytib ketayotgani haqida ijtimoiy tarmoqda misollar juda ko'p.

**Muomala – ko'zgu.** Ko'z-gudan yuzingiz ko'rinadi. Lekin muomala ko'z-gusidan fe'lingizdagi nuqsonlarniyam ko'rasiz.

Bir turli insonlar borki, ular yuqori mansabdakilarga yetti buki-lib salom beradi-yu, ammo o'zidan past lavozimdakilarni nazar-pisand qilmaydi. Ularga g'o'ddayib, qo'pol muomala qiladi.

Yana bir toifa kishilar (afsuski, xodimlar orasidayam uchrab turadi) borki, kichik bo'lsa-da, o'zidan yoshi kattalarga salom bermay o'tib ketaveradi. Ularga tanbeh ham kor qilmaydi. Albatta bunday beadablar, avvalo, oilasida tarbiya ko'rmagan bo'lishadi. Shuning uchun ular fe'lini bilgan tarbiyali kishilar ularga salom berib o'tishadi.

Qadimda bir insonning darvozasi oldiga qo'shnisi har kuni bir chelak chiqindisini qo'yib ketar

balki o'zida borini ko'rsatayotganidir. O'z navbatida ma'naviyatli, ma'rifatli xodimlar odob-axloqi, xushmuomalasi va xushfe'lligi bilan avvalo, ota-onasiga, xizmat qilayotgan idorasiga rahmatlar olib kelishyapti.

Xushmuomalalik to'g'risida xalqimizda «Bug'doy noning bo'lmasayam, bug'doy so'zing bo'lsin», «Tosh otganga osh ot» kabi maqollar bor.

Albatta, bugun internet asri, g'arb tarbiyasi eshiklardan emas, quloqchinlardan yoshlar ongiga kirib kelayotgan bir paytda milliy tarbiyamiz kitoblar qatida, tokchalarda qolib ketayotgani tufayli ayrim yoshlarning muomala odobida bir qator nuqsonlar sezilmoqda.

Bunga g'arb adabiyotini o'qib, ulardan faqat o'z manfaatiga xizmat qiladigan, «Boshqalar bilan ishing bo'lmasin, o'zingning ishing bitsa bo'ldi» qabilidagi «yoqimli» o'g'itlarni o'zlashtirib olayotgani ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, mashhur Deyl Karnegining «Qanday qilib ko'proq do'stga ega bo'lish va odamlarda yaxshi taassurot qoldirish mumkin?» degan asarini o'qigan kishi undan «Yengilning ostidan, og'irning ustidan o'tish, o'z manfaati amalga oshishi uchun miyig'ida soxta kulgular yasash, asosan to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lsin, xo'jayinlarning gapini ma'qullash, qanday qilib bo'lmasin, o'z ishini bitirib olish taktikasini o'rganadi, xolos.

Sharq falsafasi esa unday emas. Olganing emas, berganing o'zingniki, deydi. Bajartirganing emas, bajarganing seniki. Bu amallarni esa oshkora emas, xufyona bajar, hatto o'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin, deydi. «Buyuk yoki e'tiborli bo'lmoqni istasang mayli, lekin o'zni baland tutma, kamtar bo'l», deydi buyuk mutafakkir Sa'diy Sheroziy.

**Manmanlik, kibr-u havo  
qilmasin boshingni band,  
Baland bo'lmak istasang,  
tutmagin o'zni baland.**

Muxtasar aytganda, muomala madaniyati xodimning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Ma'naviy qiyofa esa kitob o'qish, bilim olish, ko'rgan-bilganlardan xulosa chiqarish orqali shakllanadi.

**Shuhrat RO'ZIYEV,  
o'z muxbirimiz.**



# ВАТАН ПОСБОННИНГ УМР КИТОБИ

Шундан сўнг, тирикчилик аравасини тортиш онаси ва тўнғич фарзанд – Зокиржон аканинг зиммасида қолган. Ҳаёт синовларида тобланиб экан, унда метин ирода, ҳар қандай мураккаб вазиятда ҳам тушкунликка тушмасдан оқилона қарор чиқариш қобилияти болалигиданоқ шаклланибди.

1966 йилда мактабни аъло баҳолар билан тамомлаган Зокиржон ака уч йил армия сафида Қозоғистоннинг Олмаота шаҳрида муддатли ҳарбий хизматни ўтаган. Ички қўшинларга қарашли ҳарбий қисмда хизмат қилар экан, жиноий гуруҳларни қўлга олиш бўйича тезкор тадбирларда ҳам қатнашган. Келгусида ички ишлар идораларида хизмат қилиш орзуси унда айнан муддатли ҳарбий хизмат пайтида аниқ мақсадга айланган.

Зокиржон Алматов 1970 йилда Тошкент давлат университетининг юридик факультети кечки бўлимига ўқишга кирган. Моддий етишмовчиликлар сабабли ҳам ўқиб, ҳам ишлашга мажбур бўлган. Кундузи Тошкент шаҳар қурилиш бош бошқармаси 6-трестда меҳнат қилган.

Ўша йилларни Зокиржон ака «Унутилмас хотираларим» китобида қуйидагича ёдга олади: **«Бу ерда кечган даврим мен учун катта ҳаёт мактаби вазифасини ўтади. Турли миллат вакиллари меҳнат қиладиган жамоада турфа характердаги одамларга дуч келдим. Жамиятда инсон содда ва самимий муносабат, ҳалоллик ва ростгўйлик билангина ҳурмат қозониши мумкинлигини теран англаб етдим. Англаганларимни ўзим учун мезон қилиб олдим».**

Олий юридик ўқув юртида олган билимларини амалиёт билан мустаҳкамлаш мақсадида Зокиржон ака қурилиш ташкилотидagi фаолиятини тўхтатиб, талабалик давридаёқ Тошкент вилояти Ички ишлар бошқармаси паспорт бўлимига ишга киради. Шу тариқа унинг ички ишлар тизимидаги узок йиллик шарафли касбий фаолияти бошланади.

Университетнинг юридик факультетини муваффақиятли тамомлагач, Тошкент вилоятининг Тошкент тумани ИИБ паспорт бўлимига бошлиғи лавозимида меҳнат фаолиятини давом эттиради. Кенг дунёқараши ва заковати, метин иродаси ва қатъияти билан ҳамкасблари орасида ҳурмат ва эҳтиром қозонган Зокиржон ака ички ишлар тизимида бирин-кетин масъул лавозимларга тайинланиб боради. Ўтган асрнинг саксонинчи йилларида совет давлати инқирозга юз тутаётган, аҳоли орасида норозилик ортиб бораётган ниҳоятда мураккаб шароитда Зокиржон ака ички ишлар органи масъул раҳбари сифатида ғалаён ва

тартиббузарликларни тинч йўл билан ҳал этиш, жамиятда осойишталик ва хавфсизликни таъминлашда юксак жасорат кўрсатади.

**Мамлакатимиз давлат мустақиллигини қўлга киритган 1991 йилда Зокиржон Алматов Ўзбекистон Республикасининг биринчи Ички ишлар вазири этиб тайинланади ва ушбу масъулиятли лавозимда 15 йил давомида садоқат ва фидойилик билан халқимизга хизмат қилади.**

Давлат ва жамиятда ҳукмрон мафкура ҳамда бошқарув тизими ўзгарганда ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-таълимий соҳаларда бўшлиқлар пайдо бўлиши табиий ҳолат. Мамлакатимиз мустақилликка эришган дастлабки йилларда ана шундай бўшлиқларни ўзларининг бузғунчи ёт ғоялари билан тўлдиришга, ғаразли мақсадлари йўлида юртимизда нотинчлик, фитна ва террор уруғларини тарқатишга интилган диний-экстремистик гуруҳлар, гиёҳвандлик моддалари ва одам савдоси билан шуғулланувчи жиноий тўдалар жамиятимизга суқилиб киришга ҳаракат қилган, бир қанча террор хуружларини содир этган. Қуйидаги фожиали воқеалар:

- 1991 йилдаги Наманган воқеалари;

- 1992 йилда Тошкент шаҳрининг Талабалар шаҳарчасида содир этилган оммавий тартибсизликлар;

- 1999 йил 16 февралда пойтахтимизда террорчилар томонидан амалга оширилган портлашлар;

- 2000 йилда Сурхондарёнинг Сарийосиё ва Узун туманлари орқали юртимизга бостириб кирмоқчи бўлган террорчилар билан тўқнашувлар;

- 2004 йилдаги Қорамурт фожиаси;

- 2005 йилда Андижонда содир этган хунрезликлар мустақил мамлакатимиз тарихида қонли ҳарфлар билан битилган.

Китобнинг ушбу фожиаларга оид бўлимини ўқиган ҳар бир инсон юртимиз тинчлиги, сарҳадларимиз дахлсизлиги, жамиятда қонун ва адолат устуворлигини Зокиржон ака каби халқимизнинг қанчадан-қанча мард ва жасур ўғлонлари азиз жонларини хатарга қўйиб, мардондор ҳимоя қилганларини теран англайди. Ўзбекистон халқ шоири **Сирожиддин Саййид** Зокиржон акага бағишлаб ёзган **«Улуғроқ иш борми элнинг тинчидан»** номли шеърида таъкидлаганидек:

*Ёмонлик – ёмонда,*

*Меҳр – дўстдадир.*

*Олам меҳр ила тинч, пайвастадир.*

*Адолатнинг қўли баланд келса гар,*

*Разолат доимо тубан, пастдадир.*

Халқимизнинг ҳақиқий қаҳрамони, йирик давлат арбоби Зокиржон Алматовнинг «Унутилмас хотираларим» китоби яқин тарихимиздаги воқеаларни холис ёритиш орқали китобхонда ватанпарварлик, элга муҳаббат ва давлатга садоқат туйғуларини янада мустаҳкамлайди.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант **Пўлат Бобожонов** китобга ёзган кириш сўзида таъкидлаганидек, «Унутилмас хотираларим» асари илгари нашр қилинган **«Зокиржон Алматов – бир умрлик жасорат»** китобининг мантқиқий давомидир.

Шунингдек, 2022 йилда Зокиржон Алматов ҳамда Абдуғофур Сатторов ҳаммуаллифлигида нашр этилган **«Ортда қолган таҳликали кунлар»** китобида баён этилган воқеалар ушбу янги нашрда янада батафсил ёритилган.

**«Унутилмас хотираларим»** китоби тузилишига кўра уч бўлимдан иборат.

Биринчи бўлим **«Аждодларимиз тарихига бир назар»** деб номланади. Унда Зокиржон Алматовнинг ота-боболари тарихи, болалик йиллари, унинг дунёқарашига кучли таъсир кўрсатган ибратли воқеалар ёритилган. Муаллиф болалик давридаёқ мутолаани ёқтирганини, китоблардан ўзи учун керакли фидоиларни саралаб, уларга умри давомида риоя қилганини қайд этган.

**«Хитой файласуфи Конфуций ўз даврида ёзиб қолдирганидек, комил инсон тўққиз нарсага эришиш тўғрисида ўйлайди: равшан кўришни, аниқ эшитишни, истараси иссиқ бўлишни, ишига бошқалар ҳавас қилишини, сўзлари самимий бўлишини, ҳаракатларида эҳтиёт бўлишни, гумон пайдо бўлганда бошқалардан сўрашни, қаҳрининг оқибатларини, фойда олиш имконияти пайдо бўлганида ҳалол бўлишни. Ана шу тамойилларга асосланган ва риоя этган ҳар қандай инсон комилликка эришади. Мен ўз ҳаёт йўлимда айнан ана шу қондаларга устозларимнинг маслаҳатларига қатъий риоя қилдим»**, – деб ёзади муаллиф.

**«Қисматимдаги таҳликали кунларим»** номли иккинчи бўлимда мамлакатимиз мустақиллигининг дастлабки йилларида халқимиз тинчлиги ва давлатимиз равнақиға таҳдид солган бузғунчи кучларга қарши ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари олиб борган мардондор кураш воқеалари тасвирланган. Муаллиф ўша пайтда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири сифатида воқеа-жараёнларнинг «қайноқ маркази»да тургани, жиноятчиларга қарши кўплаб тезкор тадбирларга шахсан бошчилик қилгани мамлакатимизнинг яқин ўтми-

шини холис таҳлил қилиш, айниқса, ёш авлодда тўғри тасаввур ҳосил қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Учинчи бўлим **«Замондошларим ҳақида»** деб номланган. Унда муаллифнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев, Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Исрол Каримов, шунингдек, Пўлат Бобожонов, Исмоил Жўрабеков, Убайдулла Мингбоев, Фафур Раҳимов, Ёдгор Саъдиев, Бўритош Мустафоев каби давлат ва жамият, фан ва маданият арбоблари тўғрисидаги хотиралари баён этилган. Жумладан, «Шукроналик» номли очеркда 2018 йилда давлатимиз раҳбарининг тавсиялари билан Зокиржон Алматов Ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси этиб тайинлангани мамнуният билан таъкидланган.

Зокиржон Алматовнинг Ватан олдидаги фидокорона хизматлари давлатимиз томонидан муносиб тақдирланган – у 1995 йилда II даражали «Шон-шараф», 1999 йилда I даражали «Шон-шараф», 2005 йилда «Буюк хизматлари учун», 2021 йилда «Фидокорона хизматлари учун» орденларига сазовор бўлган. Шунингдек, 2018 йилда Тожикистон Республикасининг «Дўстлик» ордени билан тақдирланган.

Зокир аканинг ибратли ва унутилмас хотиралари билан танишар эканмиз, Ўзбекистон халқ шоири Маҳмуд Тоирнинг қуйидаги мисралари ёдимизга тушади:

*Элнинг Сиздек генерали  
бисёр бўлсин,  
Шогирдлар ҳам устозидек  
саркор бўлсин.  
Эзгу ният, эзгу ишлар  
такрор бўлсин,  
Яхши бўлиш яхши экан,  
Зокир ака.*

Хулоса қилиб айтганда, ушбу китоб Ватанга муҳаббат, халққа ва давлатга садоқат билан хизмат қилган мард, доно ва жасур инсоннинг ибратли умр йўли ҳақида ҳикоя қилади. Мутолаа асносида билимингиз ҳам, қалбингиздаги одамийлик туйғулари ҳам юксалиб бораётганини сезасиз. Китоб хотимасида келтирилган муаллифнинг қуйидаги хулосасига чин қалбдан иқрор бўласиз: «Балки ҳаётда йиллар, замонлар ўтиб, кўп қадриятлар ўз қадрини йўқотар. Лекин ҳалоллик, адолатпарварлик, жасорат, қаҳрамонлик, фидойилик, садоқат каби қадриятлар ҳеч қачон ўз қадрини йўқотмайди. Умрим китобини варақлаб, ўзим кўрган, бошимдан ўтказган турфа воқеаларни таҳлил қилиб, ана шундай хулосага келдим».

**Акмал САИДОВ,**  
академик.





Chekka hududlarda

## KOSONSOY – FORUM MEZBONI

Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 45-sonli «Nurli maskan» maktabida «Nurli maskan orzulari» nomli X respublika forumi bo'lib o'tdi.



Tadbirda IIV hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ul xodimlari, respublikadagi barcha «Nurli maskan» maktab-internatlari direktorlari va ichki ishlar organlaridan birlashtirilgan xodimlar ishtirok etdi.

Forumda mamlakatimizda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan, ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan

zarur chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Shundan so'ng mehmonlar respublikaning turli viloyatlaridan kelgan «Nurli maskan» maktablari o'quvchilari tomonidan yasalgan qo'l mehnati mahsulotlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirishdi.

– Ichki ishlar vazirligi rahbariyati tomonidan ta'lim muassasasiga berilayotgan e'tibor o'quvchilarimizning sifatli ta'lim olishini ta'minlamoqda. Shu ma'noda bugungi forum ham o'quvchi-

larimizning iqtidorini namoyish etishiga imkon berishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda, – deydi maktab-internatning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Murodjon Darveshov.

Tadбир davomida maktab o'quvchilari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar forum qatnashchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

**Gulchehra  
BUVAMIRZAYEVA,  
o'z muxbirimiz.**

Namangan viloyati.

YASHIL CHIROQ – 2024

### JIZZAX VILOYATI

Mamlakatimizda aholining yo'l harakati xavfsizligiga oid madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot ishlari muntazam ravishda uyushtirilmog'da. Mazkur yo'nalishdagi samarali tadbirlardan biri o'rta umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan an'anaviy «Yashil chiroq» musobaqasi, desak, xato bo'lmaydi.

Joriy yilda musobaqaning maktab hamda shahar va tuman bosqichlarida 540 ta jamoa, yanada aniqrog'i, 3200 dan ortiq o'quvchi qatnashdi. Viloyat bosqichida esa 13 ta jamoa g'oliblik uchun kuch sinashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan musobaqa yakuniga ko'ra, 3-o'ringa G'allaorol va Baxmal tumanlari vakillari loyiq topildi. Do'stlik va Sharof

Rashidov tumanlari yoshlariga 2-o'rin nasib etdi. 1-o'rinni Jizzax shahridagi 29-sonli o'rta umumta'lim maktabining «Uchinchi renessans» jamoasi qo'lga kiritib, musobaqaning respublika bosqichida qatnashish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

**Abbos DADASHEV,  
leytenant.**





Урок духовности и просвещения

# КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ – ДУХОВНЫЙ ОБЛИК СОТРУДНИКА

**Профессия сотрудника ОВД требует не только мужества, стойкости, профессионального мастерства, но и высокой культуры общения с гражданами. Без этих качеств невозможно успешное выполнение ответственных задач, возложенных на правоохранительные органы.**

В Кодексе профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников органов внутренних дел, утвержденном Постановлением Президента Узбекистана «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением», этому вопросу уделяется особое внимание. В части культуры общения Кодекс обязывает сотрудников быть вежливыми, уравновешенными, не допускать случаев дискриминации или проявления предпочтения каким-либо лицам, группам в зависимости от их социального происхождения, экономического положения и других факторов.

При выполнении своих функций сотрудники ОВД вступают в общение с разными категория-

Прием граждан ответственными сотрудниками органов, подразделений является одним из факторов, способствующих укреплению их связи с населением. Принимающий посетителя руководитель обязан быть внимательным к



Каждый сотрудник должен помнить – речь является внешним проявлением культуры. Это форма, в которой «материализуются» мысли и чувства человека. Яркое, огненное слово окрыляет, убогая, невыразительная, засоренная вульгарными словами и жаргонными оборотами речь способна загубить самую прекрасную идею.

Слово – мощный условный раздражитель. Нужно иметь в виду, что неосторожно брошенное слово может вызвать у собеседника переживания, неадекватные по смыслу, сильно повредить взаимоотношениям.

Сотруднику органов правоохраны в общении с гражданами недопустимо употребление грубых, вульгарных слов. Наличие в речи словесного мусора, небрежная речь характеризует личность сотрудника, его натуру.

Знать язык тех, против кого борется сотрудник, – жаргон воров, хулиганов и т.д. полезно, чтобы легче было бороться с ними, но разговаривать их языком – значит унижить себя, опуститься до их уровня.

Необходимо избегать слов, не несущих смысловой нагрузки, слов-паразитов: «значит», «так сказать», «вот» и т.д. Употребляемые как средство, заполняющее паузы, они уродуют речь, мешают ее воспринимать, более того – указывают на косноязычие говорящего.

Безудержная болтовня о вещах, не предназначенных для обсуждения в случайной компании, с расчетом снискать репутацию остроумного и общительного человека не раз являлась причиной многих личных, а иногда и общественных бед. Народная мудрость гласит: острый язык – дарование, а длинный – наказание. Нет ничего сильнее слова, а речь – это зеркало внутреннего мира человека, показатель его духовного и интеллектуального развития.

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.

контролируя свое эмоциональное состояние. При этом каждый аргумент должен произноситься убедительным тоном с чувством собственного достоинства. Цель – решительно пресечь неправомерные действия.

Сотруднику ОВД непозволительно вступать в конфликты, пререкания и ссоры, руководствоваться в своих действиях чувством личной неприязни к нарушителю. В конфликтной ситуации следует избегать многословия, излагая мысли кратко и ясно. Говорить следует спокойно, вместе с тем уверенно. В случае оскорбительного отношения не следует повышать голос в ответ на грубость, а предупредить, что за оскорбление лицо может быть привлечено к ответственности. Это способно вызвать у оскорбляющего эмоциональный прогноз поражения, побудить к пересмотру поведения.

Честное выполнение служебных обязанностей сотрудником ОВД не остается незамеченным со стороны граждан, находит положительную оценку. В общении следует добиваться единства слов и действий, так как влияние слов намного усиливается, если их смысл подтверждается действиями. Слова же, идущие вразрез с поступками, теряют силу, вызывают скептическое отношение к ним.

ми граждан: с потерпевшими, свидетелями, подозреваемыми, обвиняемыми. И в каждом случае они обязаны соблюдать совокупность установленных правил, находить индивидуальный подход.

При обращении к гражданину сотрудник обязан назвать свои должность, звание, фамилию, предъявить по требованию гражданина служебное удостоверение, после чего сообщить причину и цель обращения.

В обращении недопустимы высокомерный тон, невежливое изложение замечаний, выражения, оскорбляющие человеческое достоинство. Требования сотрудник должен излагать в убедительной форме, объяснения выслушивать внимательно.

заявителю, должен быть готов к общению с излишне эмоциональными лицами, владеть приемами ввести беседу в спокойное русло.

К экстремальным формам служебного общения в правоохранительной деятельности можно отнести общение в условиях конфликтной ситуации. В этих случаях этика делового общения требует от сотрудников психологической уравновешенности, такта, способности вести переговоры.

Профессиональная деятельность сотрудников чаще всего протекает в сфере применения мер к правонарушителям, общение с которыми не вызывает симпатии. Но служебный долг обязывает общаться с любым человеком тактично, беспристрастно,





## MARHAMATGA MARHAMAT!

● «Qovunchi» mahalla fuqarolar yig'ini profilaktika inspektori, kapitan Erkinjon Abduljalilov o'ziga biriktirilgan hududni aylanib chiqish chog'ida fuqaro A. Ahmadjonning darvozasini taqillatdi. Uy egasi eshikni qiya ochdi, lekin xotini kasal ekanini vaj qilib, profilaktika inspektorini ichkariga taklif qilmadi. Kapitan E. Abduljalilov yarim soat oldin Ahmadjonning rafiqasini bozorda pomidor sotayotgan chog'ida ko'rgan edi.

– Mayli, – dedi profilaktika inspektori, – ertaga xuddi shu paytda yana kelaman.

Ertasi kuni o'z xavfsizligi boshqarmasi xodimlari profilaktika inspektoriga pora berish chog'ida A. Ahmadjonni qo'lga olish bo'yicha tadbir o'tkazishdi.

Kapitan Erkinjon Abduljalilov Andijon davlat universitetini tamomlagan. Ichki ishlar organlaridagi xizmatga 2011-yilda kirishgan. Patrol-post xizmati batalyoni safdor xodimi, Qorasuv shahri

e'lon qilindi. Bir necha soatdan so'ng xodimlar o'g'irlab ketilgan avtomobilni Marhamat ko'chalaridan birida tashlab ketilgan holda topishgan. Hodisa joyiga tezkor-tergov guruhi yetib keldi, uning tarkibida ekspert-kriminalistika guruhi katta ekspert-kriminalisti, mayor Kozimjon Ergashev ham bor edi. Avtomashinani ko'zdan kechirish chog'ida u bolaning kechirish chog'ida u bolaning barmoq izlariga o'xshash izlarni topdi. Tezkor xodimlar mashinani o'smirlar olib qochganini taxmin qilishdi. Avtomobildan olingan barmoq izlari nusxalari «Papillon» ADITga kiritilgach, ular Rossiya Federatsiyasi fuqarosi I. Yelenaga tegishli ekani aniqlandi. Uning barmoq izlari Buxoro shahridagi Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazida ma'lumotlar bazasiga kiritilgan edi. U Namanganda qo'lga olindi.

Kozimjon Ergashev IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurtini tamomlagach,



Mayor Kozimjon Ergashev.

morxon Sobirjonovaga yordam so'rab murojaat qildi. U turmush o'rtog'i Azimjon yomon odamlarga qo'shilib qolgani, ichishni boshlagani, mast holida unga va farzandlariga qo'l ko'tarayotganini bildirdi. Podpolkovnik X. Sobirjonova hududiy profilaktika inspektori bilan birga shikoyatni tekshirib ko'rishdi. Unda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'z tasdig'ini topdi. Ayolga himo-

– Yil boshidan buyon 60 ta himoya orderi berildi, – deydi podpolkovnik Xumorxon Sobirjonova. – 32 ta oilani yarashtirishga erishildi. Janjalkash 91 ta fuqaro bilan profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

X. Sobirjonova 2003-yilda IIV Akademiyasini bitirgan. Egallab turgan lavozimida 2019-yildan buyon faoliyat yuritmoqda.



Kapitan Erkinjon Abduljalilov fuqaro Faxriddin Abdug'aniyev bilan suhbatlashmoqda.

– Inspektor uy egasini chetlab o'tib, hovliga kirarkan, ko'zi ariq bo'yida o'sib yotgan hind nashasi (marixuna)ga tushdi.

– Bularning hammasi yovvoyi, o'zi o'sib chiqqan, – dedi Ahmadjon.

– Nega ularni yo'q qilish o'rniga parvarishlayapsiz? – so'radi inspektor va bayonnoma tuzishini aytdi.

– Bayonnoma tuzmang, evaziga sizga pul beraman, bir million so'm, – deya til-yog'lamalikni boshladi uy egasi.

IIB profilaktika inspektori, Qo'rg'ontepa tumani IIB jinoyat qidiruv guruhi tezkor vakili sifatida faoliyat olib borgan. Egallab turgan lavozimida 2023-yildan buyon xizmat qilmoqda. Unga biriktirilgan hududda yil boshidan buyon bironta ham jinoyat sodir etilmagan.

● Farg'ona shahrida kaliti o't oldirish joyiga tiqilgan holatda qarovsiz qoldirilgan «Matiz» avtomobili olib qochilgan. Farg'ona vodiysi bo'ylab «Qo'lga olish» rejasi



Podpolkovnik Xumorxon Sobirjonova.

2002-yilda Marhamat tumani IIBga jo'natildi va ekspert-kriminalist etib tayinlandi. Andijon viloyati IIB EKBda katta ekspert-kriminalist, kapitan Dilshodbek Qodirovdan ko'p narsalarni o'rgandi. Katta ekspert-kriminalist, kapitan Kozimjon Ergashev dakti-loskopik, ballistik, traso-logik ekspertizalar va sovuq qurol ekspertizasini o'tkazish huquqiga ega. Egallab turgan lavozimida 22 yildan buyon xizmat qilmoqda.

● «Uzumzor» mahallasida yashovchi, ikki farzandning onasi bo'lmish 30 yoshli N. Zamiraxon xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, podpolkovnik Xu-

morxon Sobirjonovaga yordam so'rab murojaat qildi. U turmush o'rtog'i Azimjon yomon odamlarga qo'shilib qolgani, ichishni boshlagani, mast holida unga va farzandlariga qo'l ko'tarayotganini bildirdi. Podpolkovnik X. Sobirjonova hududiy profilaktika inspektori bilan birga shikoyatni tekshirib ko'rishdi. Unda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'z tasdig'ini topdi. Ayolga himo-

● Marhamat tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasida ish bir soniya ham to'xtamaydi. Joriy yil boshidan beri fuqarolarga 10300 ta identifikatsiya kartalari, 6 mingdan ziyod xorijga chiqish pasportlari berildi. Xodimlarning aniqlik va fidoyilik bilan bajargan ishlari natijasida Marhamat tumanida istiqomat qiluvchi 45 nafar shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini oldi. Xodimlar mustaqil harakatlana olmaydigan fuqarolarning xonadoniga ko'chma uskunalar bilan kelib, joyida identifikatsiya kartalarini rasmiylashtirishmoqda.

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



Tuman IIB navbatchilik qismi katta tezkor navbatchisi, kapitan Humoyun Komilov va navbatchi yordamchisi, safdor Ulug'bek Dehqonov.



Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi pasportchisi, safdor Dilshodbek Maxamadjonov.



## ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

# МАТОНАТ ВА АРДЛИК БИР БЎЛСА...

## ТАҚДИРНИНГ БИТИГИ

Истеъфодаги полковник Алишер Жўраев 1956 йил Фарғона вилоятида туғилган. 1973 йили ўрта мактабни тамомлаб, Россиянинг Новокузнецк шаҳридаги Сибирь металлургия институтига ўқишга кирган. Таҳсил олиб юрган кезлари, ички ишлар органлари талабаларни жиноятчиликка қарши кураш бўйича тадбирларга жалб қиларди. Талабалар орасида алоҳида ажралиб турган А. Жўраевга аслида ўшанда тақдирнинг ўзи ички ишлар органлари ходими бўлишини белгилаб қўйгандек эди. Забардаст, эпчил, зуваласи пишиқ ёш йигитнинг ғайрату шижоатини кўрган раҳбарият уни ишга таклиф этади. Шундай қилиб, у фаолиятини Ҳарбий ўт ўчириш қисмидан бошлайди. Бироз муддат ўтгач, милиционер бўлиб ишлайди.

Ҳалол, интизомли, масъулиятли, ташаббускор ходим сифатида тезда раҳбарият тилига тушган А. Жўраев Новокузнецк шаҳри ИИБ Коррупцияга қарши кураш хизматида фаолиятини давом эттиради. Ишдан ажралмаган ҳолда махсус милиция мактабида таҳсил олади. Турли вазифаларда ишлаб, тажриба орттиради. 1981 йили Ўзбекистон Республикаси ИИБ хизматига қақиртирилади. Пойтахтда ишни Коррупцияга қарши курашиш хизматидан бошлайди.

Кўп йиллар Наркотика қарши курашиш хизматида бўлим бошлиғи, бошлиқ ўринбосари ва



бошлиқ лавозимларида ҳам анча йиллар самарали меҳнат қилган. Марказий Осиёда БМТнинг Наркотик ва бошқа жиноятларга қарши курашиш маркази, шунингдек, Давлат божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази ҳамда Олий Мажлис ҳузурида Наркотикка қарши курашиш миллий маркази очилишида алоҳида ҳисса қўшган.

Юрт осойишталиги йўлидаги хизматлари вазирлик ва ҳукуратимиз томонидан бир неча бор эътироф этилган. Хусусан, 1996 йили «Жасорат» медали билан тақдирланган. Худди шу йили полковник унвонига эга бўлган. Ўшанда у эндигина навқирон 40 ёшда бўлган.

А. Жўраев ходимларнинг билим ва касбий маҳоратини ошириш, уларни ижтимо-

ий-ҳуқуқий ҳимоя қилишга, етарлича хизмат шароитларини яратишга алоҳида эътибор берган. Уларнинг Венгрия, Америка, Туркия каби давлатларда ўқиб, малага оширишини таъминлаган. Кўплаб шогирдлари бугунги кунда юқори давлат идораларида, ИИБ тизимида хизмат вазифасини бажариб келмоқда. Хусусан, Улуғбек Турсунов, Шўхрат Сотволдиев, Мурод Носиров унинг энг шижоатли шогирдларидан. Бир қатор шогирдлари Россия Ички ишлар вазирлиги тизимида, Самара вилоятида, Кировда, қўшни республикаларда, хорижда хизмат қилмоқда.

## ПУЛИ БОР БОЛАНИ БУЗИШГА УРИНИШАДИ

Истеъфодаги полковник Алишер Жўраев бугунги

Босиб ўтган йўлинг равон бўлса, кўнглинг хотиржам бўлади. Энг асосийси, одамлар кўзига тик қарай оласан. Қилган яхши амалларингдан фахр туясан. Бу фикрлар мақола-миз қахрамони, узоқ йиллар ички ишлар органларида самарали хизмат қилган истеъфодаги полковник Алишер Жўраевга ҳам тегишлидир.

кунда ҳам, айниқса, ёшлар орасида гиёҳвандлик воситалари истеъмол қилиш ҳолатлари ортиб бораётганини куюнчаклик билан гапирди. Ёшлар тарбиясида «мактаб – маҳалла – оила» ҳамкорлиги, жипслиги ниҳоятда муҳимлигини таъкидлайди. Айниқса, ота-оналар фарзандининг дўсти ким, кўл телефонидаги суҳбатдошлари ким, қизиқишлари қанақа, бўш вақтларини қандай ўтказяпти... Шуларни назоратга олиш, моддий жиҳатдан болани ортиқча эркалатмаслик лозим, дейди. Чунки пул болани бузади. Янаям тўғрироғи, пули бор болани бузишга уринишади.

## БАХТИЁР ОИЛА

Алишер ака энг буюк саводат — оила бахти, деб

ҳисоблайди. Унинг уч нафар қиз фарзанди бор: каттаси Азиза, Тошкент фармацевтика институтида ўқитувчи. Кейингиси Феруза, Судьялар олий мактаби битирувчиси. Асли Тошкент давлат юридик университетини тамомлаган, Давлат солиқ қўмитасида ишлайди. Кенжаси Зиёда Тошкент тиббиёт академиясини тамомлаган, «AKFA Medline» клиникасида шифокор бўлиб ишлайди. Турмуш ўртоғи Минаввара опа эса кўп йиллар республика моделлар уйида хизмат қилган. «Аллоҳга шукр, онасининг саъй-ҳаракати, тарбияси туфайли қизларимиздан кўнглим тўқ. Барчаси учун турмуш ўртоғимдан миннатдорман», дейди лавҳамиз қахрамони.

## БУГУНГИ КУНДА...

Истеъфодаги полковник Алишер Жўраев пойтахтимизнинг Шайхонтохур тумани Зафаробод маҳалласида яшайди. Уни каттаю кичик ҳамма танийди. Кези келганда, бирон масала юзасидан йўл-йўриқ, маслаҳат олишади. Маҳалла идорасидан оқсоқол, профилактика инспектори ҳам бот-бот сўраб туришади. Қахрамонимиз ҳали ҳамон одамлар орасида, уларнинг оғирини енгил қилишга, қўлидан келган ёрдамни беришга ҳаракат қилади.

Ўзининг ҳам бўш ўтиришга тоқати йўқ, бизнес билан шуғулланади, ўзининг логистика хизматини йўлга қўйган. Биз ҳам қахрамонимизга мустаҳкам соғлиқ, ишларига эса барокат ва куч-қувват тилаймиз.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,**  
ўз мухбиримиз.



## XORAZM VILOYATI

**Xorazm viloyati IIB tashabbusi bilan joriy etilgan «Xavfsiz bolalik» konsepsiyasining «Kelajak sari» loyihasi 4-bosqich ishtirokchilari viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasida bo'lishdi.**

Bu yerda bolalar maxsus texnikalar va ularning ishlash imkoniyatlari bilan yaqindan tanishishdi. Shuningdek, boshqarma mutaxassislari tomonidan yong'in hamda suvda cho'kish holatlari sodir bo'lganida amalga oshirilishi lozim bo'lgan birlamchi tezkor harakatlar bo'yicha zarur tushuntirishlar berildi. Tadbirda favqulodda holatlarda xizmat xodimlarining harakatlanish tartibi amaliy mashg'ulotlar misolida ko'rsatib o'tildi. Mutaxassislar tadbir ishtirokchilarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob berishdi.





■ Сырдарьинская область

# ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ЧУТЬЕ РЯДОВОГО

Ноябрь 2023 года. Чинары на улице Космонавтов в городе Гулистане уже облачают желтыми листьями тротуары. Водитель 1-го отряда УООП СОБ Сырдарьинского УВД рядовой Хуршиджон Хошимов нес ночное дежурство на закрепленном участке.

Объехав улицы, он решил ненадолго задержаться возле кафе «Дилхуш», припарковав машину так, чтобы был широкий обзор для наблюдения. Усилившийся дождь разогнал припозднившихся прохожих.

Тут внимание сотрудника привлекла пара лиц, приблизившаяся к автомашине «Дамас». Убедившись, что его двери заперты, один из друзей достал из-под куртки шампур. Второй, озираясь по сторонам, с нетерпением ожидал результата усилий напарника. Тот быстро вскрыл замок, нырнул в салон и достал небольшой сверток. Дело было сделано. Напарники стали удаляться...

Не успели они перевести дух, как перед ними возник рядовой Хошимов. Он установил личности незнакомцев. Ими оказались М. и Н., проживающие в Сайхунабадском районе. Сотрудник вызвал инспектора профилактики и по-

просил найти владельца «Дамаса». Вскоре тот прибыл к месту события. Осмотрев машину, сообщил, что пропали два миллиона сумов, находившиеся в бардачке.

Это один из эпизодов из служебной деятельности рядового Х. Хошимова.

Хуршиджон родился в 1998 году в Сайхунабадском районе. Окончил факультет физической культуры Гулистанского государственного университета. Он неоднократный чемпион Сырдарьинской области по вольной борьбе. В минувшем году рядовой Х. Хошимов был признан руководством областного УВД самым преданным профессии сотрудником. Службу несет, равняясь на старших коллег, в числе которых командир 1-го отряда майор Мансур Абдурахмонов.

**Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,**  
соб. корр.



★ И такое бывает!

## ПРОКАТИЛСЯ С ВЕТЕРКОМ



**Марат Тилеуов, наметив множество дел, направился на своем «Ласетти» из Чимбайского района в Нукус. Но прежде заехал в автомастерскую, попросил провести технический осмотр ходовой части.**

Молодой мастер по имени Собир заверил, что выполнит заказ за два часа. Марат решил за это время уладить кое-какие вопросы и отправился по адресам...

Собир управился за час. В его распоряжении было еще время и парень поддавался соблазну прокатиться на авто, осознавая, что делать этого категорически нельзя. Сделав несколько кругов вокруг автосервиса, он выехал на трассу. Послушный двигатель откликнулся на каждое нажатие педали газа. Автомобиль набрал приличную скорость. Собир не справился с управлением и ударил впереди едущий «Ласетти» Али Уринова.

Пострадавшая машина по инерции столкнулась со следующей, которой оказался «Дамас»...

М. Тилеуов был озадачен, когда, вернувшись через два часа, не обнаружил в мастерской свою машину. Тут ему позвонили и сообщили о происшедшем. Незадачливый владелец добрался до места автоаварии и увидел неприглядную картину.

Все издержки по ремонту автомобилей возложены на любителя прокатиться с ветерком.

(Имена и фамилии изменены.)

**Соб. корр.**  
Республика Каракалпакстан.

★ 27 июня — День работников печати и средств массовой информации

## ИЗ ИСТОРИИ ПЕЧАТИ

В Древнем Риме первые газеты распространялись в виде глиняных табличек. В них содержалась информация о новых законах либо об их изменениях, принятых Сенатом.

\*\*\*

Слово «газета» произошло от мелкой итальянской монеты gazzetta – именно столько стоил в XVI веке небольшой ежедневный листок с последними новостями, который с 1556 года издавался в Венеции.

\*\*\*

Широкая печать бумажных газет началась в середине XV века, после того как Иоганн Гуттенберг сконструировал печатный станок.

\*\*\*

Размер самой маленькой газеты – не более спичечного коробка. Она была выпущена в Бразилии. Состояла из 16 полос, на которых размещали не только текст, но и фотографии с рекламой.



\*\*\*

В XIV веке для цветной печати придумали использовать множество дощечек, окрашенных каждая в свой цвет.

\*\*\*

Одна из популярных в мире газет – британское издание Guardian выходит в свет уже около 200 лет.





## JIZZAX VILOYATI



2018-yil 30–31-mart kunlari davlatimiz rahbarining Jizzax viloyatiga tashrifi davomida aholi va faollar bilan o'tkazilgan muloqotlardan so'ng hududda o'nlab ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirildi. Chunonchi, belgilangan vazifalar doirasida Jizzax viloyati IIB Axborot xizmati texnik imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi.

Jumladan, hokimlik mablag'lari hisobidan viloyat IIB binosida tasvirga olish studiyasi, montaj hamda shaxsiy tarkib uchun xonalar barpo etildi. Qolaversa, qiymati 270 million so'mlik zamonaviy foto va videotasvir uskunalari, montaj qurilmasi, kompyuter hamda boshqa jihozlar olindi.

Muxbir, montajchi va videotasvirchilar ishga jalb etildi. Natijada texnik imkoniyat va mutaxassislar tarkibi borasida respublikada ilg'orlar safidan joy oldik. O'z navbatida, ijodiy ko'rsatkichlarimiz yaxshilandi.

Xususan, haftada bir marta ichki ishlar organlari faoliyatiga oid «Qonun himoyasida», har kuni «102/365», shuningdek, oyda bir marta «Oramizdagi qahramonlar», «Xodimning bir kuni» kabi ko'rsatuvlar tayyorlanib, viloyat va respublika telekanallarida efirga uzatilmoqda. Ma'lumot o'rnida aytish kerak, joriy yilning birinchi yarmida 6 mingdan ziyod fotolavha, audio va videomateriallar tayyorlanib, boshqarma veb-saytida berildi.

**Abulqosim AHMEDOV,**  
mayor.

## SAMARQAND VILOYATI



2022-yildan buyon «Osoyishtalik yo'lida» ko'rsatuv har haftaning shanba kuni boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari, viloyat televideniyesida namoyish etilib kelinmoqda. Unda tizimdagi yangiliklar, jarayonlar, tezkor voqea-hodisalar xabar va reportaj tarzida keng yoritiladi. Hozirga qadar ushbu ko'rsatuvning 200 dan ortiq soni efirga uzatilgan.

Shuningdek, xizmatda yuksak natijalarga erishayotgan, faoliyati davomida yutuqlarga erishib hamkasblariga o'rnak bo'layotgan xodimlar ishtirokidagi «Suhbat plyus», turizm boshqarmasi xodimlarining tarixiy obidalarda sayyohlarga ko'rsatayotgan xizmat faoliyati haqida

hikoya qiluvchi «Sharq gavhari» ko'rsatuvlari ham tomoshabinlar e'tiboriga havola etib kelinmoqda.

Ushbu loyihalarda viloyat IIB Axborot xizmati rahbari, kapitan Jahongir Sagdullayev boshchiligidagi Axborot xizmatining safdor xodimlari, operator Salohiddin Jalolov, mutaxassis Furqat Rahimov hamda erkin yollangan muxbir Umida Mamadaliyeva, montajchi Shexroz Astanovdan iborat ijodkorlar jamoasi sohada olib borilayotgan islohot va yangiliklarni ommaga keng targ'ib qilish, uning media makondagi imidjini oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan jonkuyarlardandir.

## NAMANGAN VILOYATI



Asosiy ishlarimizni Ichki ishlar vazirligi tasdiqlagan media rejadani kelib chiqqan holda tashkil etamiz. Shu bilan birga, Namangan viloyati IIB tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli amaliy ishlar, xususan, sektor rahbari sifatidagi faoliyati, sayyor qabullar ham qadam-baqadam yoritib boriladi. Zimmamizdagi mas'uliyatning yuki zalvorli. Boshqarmaning sayt va telegram kanalida jarayonlar muntazam ravishda aks ettirib boriladi. Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi Axborot guruhi tomonidan tayyorlanayotgan mazmunli ko'rsatuvlar o'z muxlislarini topib ulgurgan. Har hafta ijtimoiy tarmoqning «YouTube» kanalida namoyish etiladigan «Navbatchilik qismi xabarlarini», bir oyda ikki marta efir yuzini ko'rayotgan «Mardona» ko'rsatuvlari YHXB bilan hamkorlikda tayyorlanmoqda.

Bunda, ayniqsa, YHXB Axborot guruhi xodimlari mayor Botirjon Boymirzayev, safdorlar Nazira Olimjonova, Erkin Sattorovning xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz.

Operator va fotomuxbir sifatida mutaxassis Ulug'bek Suliboyev maromiga yetkazib video va suratlar tayyorlab bermoqda. Montaj ustasi Ismoil Tursunov, patrul-post xizmatini yaqindan yoritib kelayotgan Tohirjon Hojimatovning xizmatlari haqida alohida gapirish mumkin.

Fursatdan foydalanib, 27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan barcha hamkasblarimni tabriklab, kelgusi ishlarida omad, ijodiy barkamollik tilab qolaman.

**Xurshidbek SOLIYEV,**  
mayor.

## SURXONDARYO VILOYATI



Xoh ish kuni bo'lsin, xoh bayram kunlari, ushbu xizmat xodimlari kamera ko'targan muhim lahzalarni suratga, videoga muhrlash bilan band bo'ladilar. Shunday fidoyi xodimlardan biri – viloyat IIB Axborot xizmati mutaxassisi, katta serjant Iskandar Xurramovdir.

– Axborot xizmatida 2022-yildan beri faoliyat yuritib kelyapman, – deydi u. – Asosiy vazifamiz soha faoliyati haqida videoroliklar, fotolavhalar tayyorlashdan iborat. Zimmamdagi vazifani astoydil uddalashga harakat qilyapman. Muhimi, o'z ishimdan mamnunman. Chunki aholining axborotga bo'lgan katta

ehtiyojini qondirishga ko'maklashayapmiz.

Ba'zan tadbirlarning keti uzilmaydi, ba'zan voqea joyiga yarim tunda tezkor guruh bilan birga chiqishga to'g'ri keladi. Axir, jonli lavhalar axborot xizmati faoliyatida muhim rol o'ynaydi-da. Bugungi tezkor zamonada axborot xolisona talqinda, tezkorlik bilan ulashilmasa, noto'g'ri ma'lumotlar darrov urchiydi va bu odamlarda noo'rin qarashlarni shakllantirishi mumkin. Shu bois axborot xizmati xodimlari, xususan, operator mutaxassisining mehnati mashaqqatli sanaladi.





HAMKASBLARIMIZ HAQIDA

## SPORTDA HAM, XIZMATDA HAM O'RNAK

**Mayor Nizamatdin Jiyemuratov Nukus shahrida tug'ilgan. Bolaligidan sportga oshno bo'lib ulg'aygan. Ota-onasi oiladagi uch farzandning qiziqishlarini doim qo'llab-quvvatlagan. Nizamatdin oilada to'ng'ich, shu bilan birga, yolg'iz o'g'il farzand bo'lgani bois unda mas'uliyat hissi ikki karra ortiqroq edi.**

– Maktab paytlarimdan oq katta-kichik turnirlarga qatnashardim. «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqalarida ishtirok etganman. Natijalarim yaxshi bo'lgan. Ayniqsa, «Barkamol avlod» men uchun o'ziga xos tarix. Sababi, unda dzyudo bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritganman. Bundan tashqari, ushbu sport turida yoshlar o'rtasida uch karra O'zbekiston chempioni bo'lganman, – deya eslaydi N. Jiyemuratov.

Sportda jarohatlar sportchilar bilan yonma-yon yuradi. Bundan lavhamiz qahramoni ham chetda qolmadi. 2004-yili Qozog'istonning Olmaota shahrida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida yurtimiz nomidan ishtirok etgan Nizamatdin Jiyemuratov qattiq jarohat oladi va

jarrohlik stoliga yotishga majbur bo'ladi. Lekin, har qancha og'ir bo'lmasin, u bir yil ichida tiklanib, butkul sog'lom holda yana sportga qaytgach, 2006-yili ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilinadi.

Qoraqalpoq davlat universitetining moliya-iqtisod yo'nalishini tugatgan Nizamatdin dastlab patrul-post xizmatida, keyinchalik boshqa sohaviy xizmatlarda faoliyat ko'rsatadi. Kasbiy bilim va tajribasi oshib borgan lavhamiz qahramoni bir muddat Qoraqalpog'iston Respublikasi IIVda ham mas'ul lavozimlarda ishladi.

U nafaqat mahoratli sportchi, balki havaskor qo'shiqchi ham. Ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan ko'plab tanlovlarda o'zi va oilasi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etgan. «O'zbekiston – Vatanim manim!», «Namunali oila» ko'rik-tanlovlari shular jumlasidandir.

U to'rt qiz va bir o'g'ilning otasi. Farzandlari ham ota izidan ketishgan. Uch qizi dzyudo, suzish va badiiy gimnastika bilan professional tarzda shug'ullanib, allaqachon ilk natijalarni qayd etishni

boshlagan. Xususan, katta qizi Shahzoda dzyudo bo'yicha mamlakat chempioni. Yana bir qizi Durdona esa badiiy gimnastika bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi chempionligini qo'lga kiritgan. O'g'li Shaxriddin futbol akademiyasida tahsil olmoqda.

Mayor Nizamatdin Jiyemuratov ayni damda Mirobod tumani IIOFMB Kadrlar bilan ta'minlash, jismoniy va jangovar tayyorgarlik guruhi katta mutaxassis-instruktori lavozimida faoliyat yuritadi. U tuman IIB xodimlari bilan jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini faol olib boradi.

– Mirobod tumani IIOFMBda xizmat qilayotganimga bir yildan oshdi, – deydi Nizamatdin Jiyemuratov. –



Natijalar yomon emas. Xodimlarimiz orasida turli sport yo'nalishlari bo'yicha hatto terma jamoalarga jalb qilinganlari ham bor.

Jismoniy chiniqish kishining mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, albatta. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishdek ezgu maqsad yo'lida faoliyat yuritayotgan ichki ishlar organlari xodimlari uchun bu nihoyatda muhimdir.

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



NAVOIY VILOYATI

## OYLIK DOIRASIDA

**Har bir kasbda avvalo intizom talab etiladi. Ichki ishlar organlarida o'tkazilayotgan «Temir intizom va qonuniylikni ta'minlash oyligi» davomida Navoiy viloyatida bir qancha masalalarga alohida e'tibor qaratildi.**

Xususan, oylik doirasida Tergov boshqarmasi va uning quyi tuzilmalarida tergovchilar va surishtiruvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, xizmat intizomiga qat'iy rioya qilish, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik, har bir jinoyat ishini halol va adolatli bo'lish lozimligi xususida muhim tavsiyalar berildi. Shuningdek, sohada aniqlangan bir qancha kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Qiziltepa, Konimex, Karmana, Navbahor tumanlari, Zarafshon shahar IIB, shuningdek Navoiy kon-metallurgiya kombinatidagi IIB xodimlarining xizmat xonalari ko'zdan kechirildi, ish hujjatlari, kiyim-boshlari va xizmat avtotransportlari hujjatlari tekshirildi. Erta tongdan yurt osoyishtaligini ta'minlashdek sharaflari va zifani bajarish uchun xizmatga otlangan xodim intizom talablarga qat'iy rioya etishlari, qonun ustuvorligini ta'minlash borasida avvalambor o'zi xalqqa o'rnak



bo'lishi lozimligi uqtirildi. Shu maqsad-da fuqarolar bilan xushmuomala bo'lish, xizmatga vijdonan yondashish bo'yicha tushuntirishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, oylik doirasida xodimlarni jismonan va ma'nan yetuk, ruhan tetik bo'lishlari lozimligini nazarda tutgan holda turli sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, qadimiy ziyoratgohlarga sayohatlar, spektakl namoyishlari, psixologik treninglar tashkil etilmoqda.

Yaqinda viloyat IIB xodimlari uchun namoyish etilgan «Poraxo'r» spektakli ularni halollikka da'vat etishi bilan ahamiyatli bo'ldi. Bundan tashqari, viloyat IIBda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar uchun Buxoro viloyatiga sayohat uyushtirilib, ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etgan «Ekobog' – Varnet» gullar maskanida psixologik trening tashkil etildi.

Darhaqiqat, amalga oshirilayotgan bu kabi sa'y-harakatlar xodimlarning kelgusidagi faoliyatida xizmat intizomini mustahkamlashda va qonun ustuvorligini ta'minlashda o'zining samarasini berishi shubhasiz.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.



## ■ Хорезмская область

**ОТМЕЧЕНЫ ЛУЧШИЕ**

В рамках месячника «Обеспечение законности и железная дисциплина» в УООП СОБ УВД Хорезмской области состоялась встреча с личным составом батальона ППС и родителями сотрудников.



Открыл встречу начальник УООП полковник С. Рахимов. Он отметил значение укрепления у сотрудников качеств ответственности, преданности профессиональному долгу. Было подчеркнуто, что самоотверженная служба по достоинству оценивается руководством МВД и областного управления внутренних дел.

– В рамках месячника проводится множество мероприятий, – говорит заместитель командира батальона ППС подполковник Алижон

Давлатов. – Изучается соблюдение личным составом требований исполнительской дисциплины. В целях расширения кругозора, повышения политического сознания, интеллектуального потенциала организуются духовно-просветительские мероприятия.

Группе сотрудников, добившихся высоких показателей в службе, и их родителям вручены благодарственные письма.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
соб. корр.

★ 27 июня – День работников печати и средств массовой информации

**НАШ СВЕТЛЫЙ, ПОЗИТИВНЫЙ ТИЛЛА**

На любом ведомственном мероприятии Хикматиллу Алимжонов можно узнать без труда. Он светлый, позитивный, энергичный, харизматичный парень, по которому видно, что выполняет свою работу с большим удовольствием.

Хикматилла Алимжанов – фотограф-оператор Управления по связям с общественностью и СМИ МВД Узбекистана. Родился 19 июня 1997 года в городе Ташкенте. Его профессиональные отношения с фотографией начались в школьную пору.

– В какой-то момент я начал видеть кадр во всем, что меня окружает. Зная технические возможности фотоаппарата, можно его настроить так, чтобы он выдал уникальную картину, которую представляешь. Условно говоря, можно «поймать» время, а можно его «отпустить». Это если мы говорим о постановочном кадре. При репортажной же съемке с мероприятием главное – уловить момент, ведь возможности повторить уже не будет. Если увидел кадр, надо тут же его запечатлеть, потому что через мгновение он уже перестанет существовать, – делится Х. Алимжанов.

Будучи творческим человеком, полным идей, молодой человек решил не останавливаться на достигнутом и серьезно заняться фотографией. Так, в апреле 2018 года он начал работать в пресс-службе МВД.

Хикматиллу, которого коллеги называют «Тилла», что означает «золотой», можно увидеть на мероприятиях, проходящих в Центральном аппарате МВД и за его пределами. В своих фото- и видеорепортажах он фиксирует достижения ведомства, рассказывает о непростых буднях стражей порядка. Его материалы широко используют СМИ при подготовке просветительских роликов.

– В целом я критично отношусь к своим работам, мне всегда кажется, что можно что-то исправить, улучшить. Но когда окружающие говорят, что снимок хороший, меня это успокаивает. Объективное мнение со стороны, безусловно, важно, – делится Хикматилла. – Признателен всем, с кем приходится взаимодействовать по долгу службы – сотрудникам подразделений органов внутренних дел, коллегам из СМИ. Всем огромная благодарность за сотрудничество.

Также Хикматилла Алимжанов выразил самые теплые слова о своих коллегах, наставниках, которые его направляют и поддерживают, – подполковнике Азизжоне Тишабаеве, рядовом Дилмуроде Зияеве.

– Каждый хороший коллектив отличают сплоченность, взаимовыручка. Горжусь тем, что у нас именно такой коллектив. Все сложные вопросы решаем сообща, опираясь на опыт и знания старших коллег. Отсюда и результат положительный, – говорит Х. Алимжанов. – Пользуясь возможностью, хочу поздравить с профессиональным праздником работников сферы печати и СМИ, оперативно несущих обществу объективную, достоверную информацию. Желаю реализации творческих планов, успехов.

Свой профессиональный праздник герой очерка отметит, что называется, на посту, продолжая освещать деятельность правоохранительных органов.

**Азиза БОХОДИРОВА,**  
капитан.





# KONDITIONERDAN FOYDALANISH QOIDALARI

**Konditsioner – yoz faslida, xususan, issiq ob-havo sharoitida eng muhim qurilmalardan biri hisoblanadi. Uy va ofislarda qulay va salqin muhit yaratishga yordam beradi. Biroq, undan noto'g'ri foydalanish oqibatida salomatlikda jiddiy muammolar kelib chiqishi mumkin.**

Xo'sh, ushbu texnika vositasidan qachon va qanday foydalanish kerak? Uning sog'liqqa salbiy ta'siri bormi?

havo sifatini yaxshilab, allergen va mikroblar hamda boshqa zararli moddalarning havoga tarqalishining oldini oladi.

## HARORATNI TO'G'RI BELGILASH

Yoz faslida konditsioner uchun ideal harorat 18–20°C oralig'ida bo'lishi tavsiya etiladi. Asosiysi – xona ichidagi salqinlik tashqaridagi havodan keskin farq qilmasligi lozim. Bu esa tana uchun qulay va sog'lom muhit yaratadi.

## FAQAT ZARURAT BO'LGANDA ISHLATISH

Konditsionerni faqat ehtiyoj bo'lganda yoqish kerak. Xonada hech kim bo'lmagan paytlarda uni o'chirib qo'yish energiyani tejaydi va qurilmaning xizmat muddatini uzaytiradi.

## VENTILYATSIYADAN FOYDALANISH

Konditsionerni noto'g'ri ishlatish xonadagi havoni quritib yuboradi. Shu bois uni yoqishdan oldin, ertalab yoki kechqurun xonani shamollatib turish juda muhim. Bu esa havoning toza bo'lishiga yordam beradi.

## NOTO'G'RI FOYDALANISHNING ZARARLARI

**Teri va allergik kasalliklar.** Konditsionerdan noto'g'ri foydalanilganda, xonada namlik yo'qoladi va deraza hamda eshiklar yopiq bo'lgani bois havo kislorod bilan to'yinmaydi. Bu esa vaqt o'tishi bilan terini quruqlashtirib, yuzda ajinlar paydo qiladi.

## KONDITIONER TOZALIGINI NAZORAT QILISH

Ushbu qurilma filtrlarini muntazam ravishda tozalash yoki almashtirish muhim ahamiyatga ega. Toza filtrlar

Qolaversa, terining doimiy quruq bo'lishi uning tashqi qatlamiga salbiy ta'sir etib, qichishish yuzaga keladi. Shuningdek, konditsioner



filtrlari toza bo'lmasa, ularda yig'ilgan chang – allergenlar va mikroblar havoga tarqaladi. Bu esa allergik va infeksion kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin.

**Mushak va bo'g'imlarda og'riqlar.** Konditsionerdan noto'g'ri foydalanish, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri sovuq havoning inson tanasiga urilishi tufayli mushak va bo'g'imlarda og'riqlar paydo bo'lishi mumkin.

**Termal shok.** Tashqi muhitdagi yuqori haroratdan birdan sovuq xonaga kirish yoki aksincha, muzdek xo-

nadan issiq havoga chiqish termal shokka sabab bo'lishi mumkin. Mazkur holat tana haroratini tezda o'zgartirib, organizmda stress reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Bu, o'z navbatida, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini qo'zg'ashi mumkin.

**Qon bosimi ko'tarilishi.** Odatda qon bosimi issiqdan ko'ra sovuq havoda yuqori bo'ladi. Chunki salqin harorat qon tomirlarining siqilishi va spazmlarga olib keladi. Shunday ekan, konditsioner tagida uzoq vaqt o'tirish sistolik va diastolik qon bosimini

ko'taradi. Shu bois xona harorati tashqi havodan keskin farq qilmasligi maqsadga muvofiq.

**Respirator muammolar.** Konditsionerning yana bir salbiy tomoni, u tana haroratini tushirib yuboradi. Oqibatda bronxit, tomoq, bel va bo'yin og'riqlari yuzaga keladi. Ayniqsa, qurilmaning sovuq havosi insonga to'g'ri yo'naltirilsa, nafas yo'llari shamollashi, hatto zotiljam kelib chiqishi mumkin.

Shunday ekan, konditsionerdan to'g'ri va oqilona foydalaning.

## ПОЛЕЗНЫЕ ПРОХЛАДИТЕЛЬНЫЕ НАПИТКИ



Чилля наступила, в Узбекистане уже жарко. В это время важно много пить. Обильное питье помогает избежать обезвоживания и перегревания организма, а также восстановить запасы витаминов и минералов.

### ХОЛОДНЫЙ ЧАЙ

Первое место в нашем списке отдаем чаю. Этот напиток не только прекрасно утоляет жажду, но и оказывает положительный эффект на организм:

- стимулирует работу почек;
- бодрит;

- облегчает головную боль;
- нормализует работу желудка.

### АЙРАН

Кисломолочные напитки спасут сразу от двух напастей — жары и голода. Еще один их плюс в том, что в них можно добавить свежую зелень, фрукты и овощи.

### ЛИМОНАД

Вода, лимон и немного сахара — что может быть легче в пригото-

нии? Простой и полезный напиток, который подойдет как взрослым, так и детям.

### СМУЗИ

Модный густой напиток, который не пробовал лишь ленивый. Его преимуществом является большой выбор ингредиентов. В смузи можно добавить фрукты, овощи, ягоды, мороженое, минералку, крупы. Единственная граница — ваша фантазия.





JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

## QALBDA ADOLAT MAYOG' I BILAN

Inomjon 2011-yilda tergov hisbxonasida ilk xizmat faoliyatini boshlagan edi. O'sha kezlari unga mayor No'mon A'zamov, podpolkovnik Jonibek Jo'rayev kasb sirlarini o'rgatib, ustozlik qilishgan. U har bir mahkum va mahbusga xushmuomalada bo'ladi, qonun talablarini yotig'i bilan tushuntiradi.



Lavhamiz qahramoni yig'majildlarni yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha boy tajriba to'plagan. Bu borada unga ancha-muncha huquqshunoslar havas qilishadi. Mabodo mayor Inomjon Mamatqulovni maqtaguday bo'lsangiz, kamtarlik bilan: «Xalq, davlat oldidagi burchimni bajaryapman, xolos», – deydi.

Mana, stoli ustida yana bir ayblanuvchining yig'majildi. Ushbu shaxs Rossiya Federatsiyasida qo'lga olinib, O'zbekistonga ekstraditsiya qilingan. U bankda ishlagan davrida fuqarolar nomiga kredit rasmiylashtirib, o'zlashtirgan. Javobgarlikdan qutulish maqsadida Rossiyaga qochib ketgan.

Qo'lga olingach, dastlabki tergov harakatlari chog'ida qariyb sakson million so'mlik zararni qoplagan. Shu boisdan sud unga ozodlikni mahrum qilish bilan

bog'liq bo'lmagan jazo tayinlagan. Ertaga u ozodlikka chiqariladi. Ayblanuvchi, gumon qilinuvchi shaxslar ozodlikka chiqqanida, har doim Inomjon ham ular bilan birga xursand bo'ladi. Hozir ham yig'majildni ko'zdan kechirgach, quvonib turibdi.

– O'n uch yillik faoliyatim davomida bor-yo'g'i uch marta ustimdan shikoyat qilishgan, – deydi IIV huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy hududi 8-tergov hisbxonasini maxsus hisob bo'limi inspektori, mayor Inomjon Mamatqulov. – Lekin uchala holatda ham xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra xatti-harakatim qonunga muvofiq deb topilgan.

Buning sababi oddiy. Chunki qalbida adolat mayog'iyonib turgan insonning yuzi hamisha yorug' bo'ladi.

**O'z muxbirimiz.**

*Sirdaryo viloyati.*

## IBRAT OLSA ARZIYDI

IIV huzuridagi JIED Oltinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazida podpolkovnik Nurali Latipov o'z fikri, tajribasi hamda tartib-intizomi bilan hamkasblari orasida obro' qozongan. Biror ishga kirishsa, albatta, uni oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Shundanmi, ko'pchilik xodimlar, ayniqsa, yoshlar u kishiday bo'lishga, el-yurtga munosib xizmati bilan obro'-e'tibor topishga intilishadi.

Podpolkovnik Nurali Latipov salkam 30 yildan beri ichki ishlar organlarida xizmat qiladi.

Ayni paytda 20-sonli jazoni ijro etish koloniyasi boshlig'ining tartibot va tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida xizmat qilayotgan lavhamiz qahramonining faoliyati bilan yaqindan tanisharkanmiz, o'z kasbidan baxt topganlardan biri ekaniga guvoh bo'ldik. N. Latipovning ko'p yillik tajribalari va o'tkazib kelayotgan tadbirlari koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni

ular ustozining o'gitlariga amal qilib kam bo'lishmaganidan dalolat beradi.

Lavha qahramonining ham shu darajaga yetishida ustozlarining hissasi beqiyos bo'lgan. Ziyodullo Doniyev, Baxtiyor Murodov hamda Haydar Jamolov kabi ustozlari sohaga oid ishlarni puxta o'rgatib, kasbga bo'lgan mehrini oshirishgan.

Havas qilsa arzigulik ibratli oila boshlig'i Nurali Latipov va umr yo'ldoshi Dilorom Najmiddinovaning Humoyun, Madina va Odina ism-



tarbiyalashda, jamiyatga moslashishida hamda qayta jinoyat sodir etmasliklari borasida asqatyapti. Shuningdek, shaxsiy tarkibning xizmatni to'g'ri tashkil qilishiga, halollik bilan ishlashiga hamda yosh xodimlarning xizmatlarda ko'nikmalar hosil qilishida jonbozlik ko'rsatmoqda. Shogirdlarining aksariyati rahbarlik lavozimlarida ishlayotgani ham xodimlarga bo'lgan talabchanligidan va

li o'g'il-qizlari bor. Farzandlar ham xuddi otalaridek havas qilsa arziydigan insonlar bo'lib bo'y ko'rsatishlariga ishonchimiz komil. Chunki ajoyib inson, ilmi kishi bo'lgan Nurali akaning tarbiyasini olgan bolalar, albatta, yetuk kishi bo'lib yetishishadi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Buxoro viloyati.*

## «MA'NAVIYAT MARSHRUTI» YO'NALISHIDA



35-son manzil koloniyasining shaxsiy tarkibi o'rtasida ichki ishlar organlarida o'tkazilayotgan «Qonuniylikni ta'minlash va temir intizom oyligi» doirasida yaqinda «Ma'naviyat marshruti» yo'nalishida Koson tumanida joylashgan «Qusam ota» ziyoratgohida bo'lishdi. Tarixiy qadamjoni ham ziyorat qilishdi, ham bu yerda amalga oshirilgan obodonchilik ishlari bilan yaqindan tanishdilar.

**Shuhrat ESHBO'RIYEV,**  
podpolkovnik.

*Qashqadaryo viloyati.*





SOHAVIY XIZMATLARDA

## TEMIR INTIZOMLI XODIMLAR

**Sirdaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining Xovos shaharchasida joylashgan binosiga kirib borar ekanmiz, tergov-tezkor guruhi voqea joyiga chiqib ketayotganiga guvohi bo'ldik. Ma'lum bo'lishicha, shaharchaga yaqinlashgan eshelonga bir guruh shaxslar chiqib olgan va ochiq yuk vagonlaridan ikkilamchi temir parchalarini yerga tashlashgan. Ular Yangiyer shaharchasining xalq orasida «58» deb ataladigan mavzesida poyezdga osilib olishgan. Xo'sh nima uchun aynan shu mavzeda?**

– Yuk poyezdlari shu mavzedan o'tayotganda Xovos shaharchasiga qarab buriladi, – deydi viloyat TXTB Tergov guruhi tergovchisi, kapitan Ikrom Tursunov. – Bu vagonlarga osilib chiqib olish uchun qulaylik tug'diradi.

O'g'irlik sodir etgan shaxslar qo'lga olindi. Ular Xovos shaharchasida istiqomat qiluvchi, muqaddam aynan shunday qonunbuzarlik uchun sudlangan shaxslar bo'lib chiqdi. Tergov-tezkor guruhi voqea joyini ko'zdan kechirib, yetkazilgan zararni aniqlab, ashyoviy dalillarni to'pladi.

Xodimlar temiryo'ldagi qonunbuzarliklar faqat o'g'irlikdangina iborat emasligini ta'kidlashdi.

– Ba'zan voyaga yetmagan bolalar ham temiryo'l harakatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin, – deydi viloyat TXTB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Rahim Utemuratov. – Ular o'zlaricha eksperiment



qilib ko'rishga usta. Masalan, «Sharqobod» mahallasida yashovchi 13–14 yoshli uch nafar bolakay armatura parchasini temiryo'l relsi ustiga qo'yib, poyezd g'ildiraklari yordamida pachaqlab olishga harakat qilgan. Odatda poyezd g'ildiraklari katta bosim ostida bunday armaturalarni osongina pachaqlab ketadi. Lekin xavfli tomoni, buning natijasida poyezd relsdan chiqib ketishi ham mumkin. Yaxshiyamki, bunday «kashfiyot» poyezd harakatiga ziyon yetkazmagan. Agar armaturalarning eni kattaroq bo'lganida bormi?..

Boshqarmada «xodimbay» ishlash tizimi namunali yo'lga qo'yilgan. Har bir xodimning oilasi, yashash sharoiti to'g'risida ma'lumotlar to'plangan. Boshqarma rahbariyati xodimlarning xonadonida

bo'lib, ularning oilaviy muammolarini joyida hal qilishga harakat qiladi. Natijada xodimlarda o'z xizmat faoliyatidan mamnunlik tuyg'usi vujudga kelgan. Bu esa intizomga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

– Har bir xodimga, eng avvalo, inson sifatida qaraymiz, – deydi boshqarma boshlig'ining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Anvar Ahmedov. – Xodim shunchaki buyruqni bajaruvchi murvatga aylanishidan hech kim manfaatdor emas. Bunday xodim foyda emas, aksincha, jamiyatga zarar keltirishi mumkin. Shu sabab xodimlarning insoniy fazilati, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



AYOL VA JAMIYAT

## TAJRIBASIZ TURTINAR HAR QADAMDA

**Keyingi paytda oilaviy kelishmovchiliklar, ayollarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiq holatlari tez-tez uchrayotgani, afsuski, bor gap. Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlari tomonidan oilaviy nizolarning oldini olish, xotin-qizlarning haq-huquqlarini samarali himoya qilish maqsadida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.**

Xo'sh, oilada ajrashishlar nega yuz beradi? Buning sabablari ko'p, albatta. Masalan, keyingi yillarda qizlarni balog'atga yetmasdan uzatish hollari uchrayapti. Tabiiyki, yosh kelinchaklar ro'zg'or tutish, qaynona-qaynotaga xizmat qilish taomillarini yaxshi bilishmaydi. Shu singari, yosh kuyovlar ham oilaviy burchlarini to'la anglab yetmagan. «O'qimagan shu damda, turtinar har qadamda», deganlaridek, yosh kelin-kuyovlarning oilaviy hayot borasidagi bilimsizligi bora-bora o'zaro munosabatlarni izdan chiqaradi. Boz ustiga, ularning ro'zg'or tebratishdagi uquvsizligi, kasb-hunari yo'qligi yangi-yangi mu-



ammolarni vujudga keltiradi. Oqibatda yangi oila devori nuray boshlaydi...

Oilalarda, mahallalarda tashkil etilayotgan targ'ibot tadbirlarida

erta turmushning salbiy oqibatlari hayotiy misollar orqali tushuntirilib, ota-onalarga hali balog'atga yetmagan, turmushga tayyor bo'lmagan

o'smir qizlarni turmushga uzatmaslik uqtirilmoqda.

Profilaktik tadbirlar davomida er-xotinlar sodir etgan 373 ta ma'muriy huquqbuzarlik holati aniqlandi. Shundan 82 tasi oilaviy zo'ravonlik deb baholandi. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan 257 nafar ayolga esa himoya orderlari berildi, 9 nafar xotin-qiz Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga yuborildi.

Viloyatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan ishlar tizimli davom ettirilmoqda. Bu jarayonda «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «Temir daftar»ga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish ishlari ham e'tibordan chetda qolgani yo'q.

**Zamira RUSTAMOVA,**  
podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.



# KASBIM – MENING FAXRIM

**Taniqli va iste'dodli insonlarni ko'rib, ularning jamiyatda tutgan o'rnini kuzatib, ular qulay sharoitda ulg'aygan-da, deydiganlar ham topiladi. Lekin qiziqishi, intilishi, harakatlari bilan hayot maydonida o'z o'rnini topganlar ham tayaygina. Ana shunday insonlardan biri, oliy toifali suxandon, diktir Jamshid Umirzoqov tahririyatimiz mehmoni.**



– Jamshid aka, siz el e'tiboridagi suxandonlardan birisiz. Bu darajaga erishishning o'zi bo'lmagandir?

– Bilasizmi, kasbimga juda qiziqqanman. Jamiyatning bir bo'lagi sifatida odamlarga yuzlanganimda, doimo katta mas'uliyatni his qilaman. Keyin esa ko'nglimda sharaf hissi barq uradi.

Faoliyatim qiziqarli taassurotlarga to'la. Ko'plab taniqli va mashhur odamlar bilan uchrashaman, maroq bilan suhbatlashaman. Kasbim esa jamiyatning muhim a'zosi bo'lishimga yordam berdi. Doim o'z ustimda ishlashga, intellektual salohiyatimni boyitishga, muntazam rivojlanib borishga harakat qilaman.

– O'zi bu sohaga qiziqish qachon paydo bo'lgan? Bolalikdagi oppoq orzular boismi yo keyinroq bu kasbni tanlaganmisiz?

– Yoshligimdan televizor tomosha qilib o'tirganimda diktirlarning o'ktam ovoz bilan tadbirlarni olib borishlari, davlat rahbarlari oldida viqor bilan so'zlashlarini ko'rib, ularga juda havas qilardim. Bu orzu menga hech tinchlik bermadi. Har bir bolaning qalbida iste'dod bulog'i bo'ladi. Mana shu buloq ko'zlarini ochishda fidoyi ustozlarning xizmati beqiyosdir. Maktabda o'qib yurganimda, darslarimiz tugasa ham, uyga ketmasdan, ona tili va adabiyot o'qituvchimizning oldiga borib, shu kasbga oid savollarni berardim. O'zim qiziqqan mavzularda mustaqil ishlar tayyorlab kelardim. Ustozimning tavsiyalariga doim amal qilardim.

– O'zbekiston televideniyesidagi jamoadoshlaringiz, umuman, ijodiy muhit haqida ham gapirib bersangiz.

– Tarixning buyuk kashfiyotlaridan biri – televizor Toshkentda yaratilganini bilasiz. Televideniye o'z davrida millionlab insonlar-

ni hayratga solgan, kuldirgan, yig'latgan.

Yillar o'tib, uning har bir yo'nalishida ustoz-shogird an'anasi paydo bo'ldi. Ra'no Jo'rayeva, Nasiba Qambarova, Mirzohid Rahimov, Shuhrat Qayumov, Abdumomin O'tbosarov, Mirzohid Rahimov, Dilorom Umarova, Galina Melnikova kabi ustozlar shu soha fidoyilaridir.

Hozirda davlat miqyosidagi deyarli barcha tadbirlar, bayram dasturlari va konsertlar to'g'ridan to'g'ri nafaqat o'zimizga, balki dunyo mamlakatlariga yuqori sifatda translyatsiya qilinmoqda. Keyingi yillarda «O'zbekiston-24», «O'zbekiston», «Toshkent», «Oilaviy», «Mahalla» telekanallarida «Axborot», «Tahlilnoma», «Yangiliklar», «Studiya-24», «Munosabat» kabi ijtimoiy-siyosiy mavzudagi o'nlab dasturlar to'g'ridan to'g'ri namoyish etiladigan bo'ldi.

– Jurnalistikaning va jurnalistning jamiyatdagi o'rnini qanday baholaysiz?

– Jurnalistika – go'yo ensiklopediya. Siz har bir sohadan ozmi-ko'pmi ma'lumotga, hech bo'lmaganda tasavvurga ega bo'lishingiz talab etiladi. So'zdan so'zni farqlash, so'zni topib gapirish – bularning bari bilim. Jurnalistika davriylik bo'yicha matbuot, radio, televideniye va internetdan iborat. Ularning orasida televideniye ham ko'hnalashib borayotgan jurnalistikaning bir turiga aylandi. Televideniye – bu klassika. Hozirda internet jurnalistikasi ham albatta televideniye andaza oldi va rivojlanmoqda.

– Sizing baxtiyor inson qi-yofasida gavdalanishingiz kasb taqozosimi yoki asliyat?

– Bilasizmi, bu avaliga kasb taqozosi bo'ladi. Keyinchalik esa asliyatingizga singib, fazilatlarin-

gizdan biriga aylanadi. Insonlar meni televizor orqali qanday ko'rishgan bo'lsa, hayotda ham shunday yurishga, baxtiyor, tetik qiyofada ko'rinishga harakat qilaman.

– Bir suhbatingizda eshitgandim, ishning ko'pligidan, topshiriqlardan qo'rqmasligingizni aytgansiz... Bu ishingizni

**Jamshid Umirzoqov – oliy toifali suxandon va diktir. U 1985-yil 21-yanvarda Toshkent shahrida tug'ilgan. Oilasi bilan Toshkent viloyati Piskent shahrida istiqomat qilgan. Piskentdagi umumta'lim maktabida 5-sinfgacha tahsil olgan va 6-sinfidan Toshkent shahridagi Nafis san'at litseyining suxandonlik sinfidagi o'qigan. 2005-yil O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetini tamomlagan. 2019-yilda «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan.**

chin dildan yaxshi ko'rishingizdanmi yoki boshqalarga motivatsiya berish uchunmi?

– Ha, albatta, o'z ishimdan zavq olaman. Hech kim ish bilan qo'rqita olmaydi.

– Davlat tadbirlarida, xalq xizmatlarida kimlar bilan ishlashni yoqtirasiz?

– Hamma bilan birga ishlayman. Shogirdlarimdan oliy maqomdagi jurnalist, boshlovchilar Dildora Rustamova, Nilufar Sotiboldiyeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Dilnoza Kubayevalar bilan birga ko'plab tadbirlarni olib boramiz. Iloji boricha sahnalarda yonimdagi hamrohni tanlamaslikka harakat qilaman. Sababi, yoningizda doim bir inson bo'lsa, uning so'zlari yod bo'lib ketadi. Hozir bu gapni gapiradi, keyin unday deydi, deb turasiz.

Bunday vaqtda ishdan zavq olish hissi yo'qolib qoladi.

– Kimlarni o'zingizga ustoz deb bilasiz? Shogirdlaringiz ham bormi?

– Ustozlarim benazir insonlar. Menga ustozlik qilgan va sahnadosh bo'lganlar davrimizning eng yetuklari. Ularga doim chin qalbdan minnatdorlik bildiraman. Shogirdlarim hozirda respublikaning eng yetakchi davlat va xususiy telekanallarida faoliyat olib borishmoqda. Ular eng talab kuchli bo'lgan jurnalist, suxandonlarga aylanishmoqda. Ularni doim kuzatib turaman va nafaqat sahnada, balki hayotda ham ko'mak berishga intilaman.

– Endi oilangiz haqida ham qisqacha to'xtalib o'tsangiz.

– Rafiqam Dilnoza Umirzoqova «Uzbekistan Fashion Week» asoschisi va rahbari. Mamlakatimizdagi yosh dizaynerlarning xorijdagi namoyishlariga katta dalda beruvchi yagona platforma «Anor» milliy modalar uyining dizayneri va rahbari sifatida faoliyat yuritadi. Uch qiz va bir o'g'ilning otasiman. Hozir ayolim tug'uruqxonada. Yana bir o'g'il farzand kutyapmiz. Gazetada intervyu chop etilgunga qadar farzandim ham dunyoga keladi, nazarimda.

– Sevimli mashg'ulotingiz...

– Albatta, kitob o'qiyman. Yaxshi filmlarni tomosha qilaman va undagi o'zimga yoqqan kichik parchasiga uyimdagi kompyuter jihozlari orqali ovoz berishga harakat qilaman va uni hech qayerga tarqatmayman.

– Ichki ishlar organlari faoliyati haqidagi fikrlaringiz o'quvchilarimiz uchun qiziqarli...

– Tinchlik bor joyda taraqqiyot bo'ladi. Mana shunday go'zal diyorda tinch va osuda, farovon hayot kechirishimizda ichki ishlar organlari xodimlarining munosib hissalar bor. Har qanday ob-havo sharoitiga qaramasdan, jamoatchilik to'planadigan joylarda ichki ishlar xodimlari doimo xalq xizmatiga kamarbasta. Ularning fidoyilarcha xizmatini ko'rib doim rahmat aytaman. Azizlar, xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lida hech qachon tolmang, deymen! Zero, osoyishta go'shada bola kulgusi yangraydi, ota-ona qalbi farzand kamolidan quvonchga to'ladi.

**Madina QAHHOROVA**  
suhbatlashdi.





**Полезно знать!**

**Изучать историю происхождения названий мест весьма познавательно. Топонимы рассказывают нам о культуре, географических особенностях той или иной местности.**

**Чирокчи – район фонарных дел мастеров?**

В Кашкадарьинской области есть местность, именуемая Чирокчи («чирокчи» по-узбекски – человек, изготавливающий фонари). Что означает это название? Лет двести назад людей, зажигающих уличные



фонари, именовали «чирокчи». Возможно, от этого и произошло?

Национальная энциклопедия связывает топоним с ремесленниками, изготавливавшими приспособления освещения. Однако в этимологической литературе отсутствует такое предположение. В пользу последнего указывает и отсутствие в толковых словарях слова «чирокчи» в смысле лица, изготавливающего фонари.

В источниках приводится, что «сиракчи» или «сирокчи» – название древнего тюркского племени.

**Шафиркан или Шопурком?**

Шафиркан – название местности в Бухарской области.

Как указано в «Истории Бухары», в топониме сохранились названия города Шопурком, арыка (канала), прорытого по



приказу Шопура. Появившаяся позднее рядом крепость также именовалась Шопурком.

Согласно книге Суюна Кораева «Топонимика», принц Ирана Шопур, выпросив у хокима Бухары землю, построил дворец и основал кишлак Вардона, прорыл арык. Отсюда Шопурком – «Арык Шопура».

В некоторых источниках отмечается, что топоним возник от персидского «шо» – главный, «пур» – полный, «ком» – большой анхор, что означает полноводный анхор.

Топоним «ком» издавна был в обиходе в Бухаре. В настоящее время он встречается в названии ряда географических объектов:

Коми Зар, Коми Акка, Харамком, Комде и др. И в наименовании таких топонимов, как Писком, Конимех можно выделить «КОМ» в значении арык, река.

**Бурчмулла – курган с минаретом**

Многим хорошо известен кишлак Бурчмулла в Бостанлыкском районе Ташкентской области. Он славится историко-культурными памятниками, прекрасной природой.

Есть люди, трактующие название как слово, состоящее из двух частей: «бурч» (долг, обязанность) и «мулла» (духовное лицо). На самом деле оно никак не связано ни с тем, ни с другим словом.



В этимологической литературе указано, что название кишлака получено из слов «бурж» и «мо(ў)ла». «Бурж» – угол стены; минарет, расположенный в углу или между углами. «Мо(ў)ла» – округлое сооружение в виде минарета. Топонимовед Тура Нафасов полагает, что мо(ў)ла означает высокий топчан, сооруженный из глины, травы или кирпича. Значит, Бурчмулла – это защищенный курган, имеющий минарет, расположенный между углами стены, а также располагающий высоким топчаном.

**Буйрак – не почка**

В Учкуприкском районе Ферганской области есть кишлак Буйрак. Согласно народной этимологии, название обусловлено территорией кишлака, напоминающей по форме почку. Но исследования отвергают подобное предположение.

Есть две версии происхождения названия. По одной версии, оно произошло от слова «байри» и уменьшительного суффикса «ак». «Байри» означает место остановки, ставку. Значит, Буйрак можно соотносить с небольшой станцией. В этом есть доля истины: кишлак расположен вблизи древнего Коканда; в старину здесь останавливались гонцы, караваны.

Согласно второй точке зрения, буйрак – это название племени. Во многих источниках сообщается о существовавшем некогда племени буйрак. Это тоже близко к правде. Ибо названия ряда кишлаков округи также взяты из наименований племен: Жалойир, Катагон, Кангил, Бахрин, Кенагас, Наймас, Тургок, Кирк.



**MUNAJJIMLAR BASHORATI**

(1-iyuldan – 7-iyulgacha)



**Qo'y.** Kelayotgan hafta davomida ezgu maqsadlarga erishish yo'lida tashabbuskor va faol bo'lishingizga to'g'ri keladi. Katta ishlarni ko'pchilik bilan bamaslahat, do'stlar va yaqinlar yordamida amalga oshirgan ma'qul.



**Buzoq.** Tashabbuskorlik va ishdagi faollik ortidan barcha moliyaviy masalalarni omadli hal qilishingiz mumkin. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun hafta boshida bajarilgan ishlarni yana bir bor ko'zdan kechiring. Dam olish kunlarini imkon qadar oila davrasida o'tkazing.



**Egizaklar.** Ish joyingizda kutilmagan va asosiy o'zgarishlar yuz beradi. Lekin salomatlikka jiddiy e'tibor qaratishni ham unutmang. Jismonan og'ir vazifalardan chetlashib, ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan uzoqlashing.



**Qisqichbaqa.** Bu hafta kasb-hunar va moliyaviy jabhada sizga omad kulib boqadi. Bu davrda his-hayajonga berilmay, imkon boricha bosiqlik bilan ish yuritish lozim. Shanba va yakshanba kunlarini toza havoda sayr qilib yoki faol harakatda o'tkazing.



**Arslon.** O'z qarashlaringizga bo'lgan ishonchsizlik va oiladagi kelishmovchiliklar tu fayli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Yaxshisi, hayotning asosiy quvonchini his etishga xalaqit qiluvchi ba'zi qarash va o'y-fikrlardan voz kechganingiz ma'qul. Hafta davomida salbiy oqibatlar kuzatilmaligi uchun sog'liqni mustahkamlashga e'tibor qarating.



**Parizod.** Bu hafta sizga omad kulib boqadi. Anchadan beri o'z yechimini topa olmayotgan muhim masala aynan shu kunlarda hal bo'lishi mumkin. Rejalashtirilgan barcha yumushlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Moliyaviy jihatdan ham muvaffaqiyat siz tomonda bo'ladi.



**Tarozi.** Dushanba va seshanba kunlari hushyor bo'ling. Chunki bu vaqtda kasbiy sohingizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga harakat qiling. Yon-atrofdagilar bilan xushmuomala bo'lib, ular bilan aslo bahslashmang.



**Chayon.** Hafta boshida ish joyingizda tekshiruv tashkil etilishi mumkin. Bundan aslo xavotirga tushib, qayg'urmang. Aksincha, barcha sa'y-harakatlaringiz munosib baholanadi. Hafta so'ngida oila davrasida maroqli hordiq chiqaring.



**O'qotar.** Bu hafta har bir berilgan va'da ustidan chiqishga harakat qiling. Ko'zingizga juda mayda ko'ringan ishlarni ham bajonidil, o'zgacha havas bilan ado eting. Moliyaviy masalada keyinchalik qiynalib qolmaslik uchun har bir harakatingizni yaxshilab tahlil qiling.



**Tog' echkisi.** Bu haftada vaqt va imkoniyatlar faqat sizning foydangizga ishlaydi. Bundan unumli foydalangan holda ko'pgina muhim ishlarni bajarib olishga ulgurung. Shaxsiy biznesi borlar uchun moliyaviy masala birinchi o'rinda turishi kerak.



**Qovg'a.** Ilk davr ish faoliyatida ba'zi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sizdan o'z kuchingizga ishonib, hech ikkilanmasdan harakat qilish talab etiladi. Janjal va tortishuvlardan uzoq turing. Dam olish kunlarini o'z xonadoningizda yaqinlar bilan birga o'tkazing.



**Baliq.** Bu hafta ish joyingizda hamkasblar bilan tushunmovchiliklar kuzatilishi mumkin. Nizo va kelishmovchilikni uzoqqa cho'zmaslikka harakat qiling, aks holda, keyinchalik o'zaro munosabatlarni tiklash qiyin kechadi.



# XALQARO ANJUMAN KO'NGILDAGIDEK O'TADI

27–30-iyun kunlari go'zal tabiati, muqaddas qadamjolari, qadim qadriyatlari va turistik salohiyati bilan yurtimiz aholisi va chet elliklar e'tiborini tobora tortayotgan Jizzax viloyatining Zomin tumanida II Xalqaro maqom san'ati anjumani bo'lib o'tadi.



40 dan oshiq mamlakatning yetakchi san'atkorlari ishtirokida uyushtiriladigan tadbirga puxta hozirlik ko'rildi. Keng ko'lamlı obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari tomonidan huquqbuzarliklar va ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish choralari ko'rildi.

San'at anjumani uyushtiriladigan maydonga yondosh hududda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyatlardan kelgan ishtirokchilar uchun xalqimizning qo'shiqchilik, hunarmandchilik, urf-odat va an'analari bilan bog'liq qadriyatlari aks ettirilgan alohida pavilyonlar tayyorlandi.



## ANONS



Poytaxtimizdagi «Yoshlar ijod saroyi»da Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonovning vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

«Yoshlar oyligi» doirasida tashkil etilgan ushbu tadbir har bir yigit-qiz davlatimiz rahbarining kelajak bunyodkorlariga bo'lgan katta ishonchini oqlashi uchun, qaysi sohada faoliyat yuritmasin, astoydil mehnat qilishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi, zimmasidagi vazifalarni intizom va kuchli iroda bilan bajarishi kerakligi ta'kidlandi. Uchrashuv haqidagi maqolani gazetamizning keyingi sonida o'qiydiz.

Gazetamizning navbatdagi sonida O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, bir qator tarixiy rollari bilan muxlislar mehrini qozongan ijodkor Behzod Muhammadkarimov bilan eksklyuziv suhbat chop etiladi. Turli mavzularni qamrab olgan savollar va unga berilgan kutilmagan javoblar siz azizlarni befarq qoldirmaydi degan umiddamiz!



**MUASSIS:**  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Adolat FAYZIYEVA  
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

**TELEFONLAR:**

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

**Obuna masalalari bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz

**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-  
yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-  
ganda manba ko'rsatilishi shart.  
Gazeta tahririyat kompyuteri  
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonalar manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>a</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №2187.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50347 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**

100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.